

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

Arabboev Davronbek Adahamjon o‘g‘li

**XALQARO DIPLOMATIYA VA XALQARO MUNOSABATLAR HAMDA
UNDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI**

5111600-Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi
O.Karimov

Andijon-2017 yil

Mundarija

Kirish	3-7
I.BOB. Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezoni	
1.1 Xalqaro munosabatlar tahlili	8-12
1.2 Jahon siyosati.Ichki va tashqi siyosatning aloqadorligi hamda xalqaro munosabatlarga ta'siri.....	13-16
1.3 Xalqaro siyosiy fanlar va u haqdagi turli qarashlar tahlili.....	17-24
II.BOB. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro munosabatlardagi o'rni hamda uning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi	
2.1 O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida.....	25-30
2.2 O'zbekiston tashqi siyosatining maqsad va vazifalari. Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlar.....	31-35
2.3 O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlardagi o'rni va uning davlatlar va tashkilotlar bilan o'zaro aloqalari.....	36-55
Xulosa	56-58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	59-62
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalqaro munosabatlar va unda har qanday davlatning ishtiroki doimo ayni shu xalq va davlatning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Negaki, biror-bir davlat va hukumatning xalqaro maydonda tan olinishi va boshqalar tomonidan e'tirof etilishi bu davlatning avvalo, buyuk g'alabasi qolaversa, xalqaro doiradagi hurmat va izzatidan darak beradi. Davlatchilik taraqqiy etgan davrlardan boshlab u yoki bu davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishuvi, o'zaro yaqin aloqalar o'rnatishi qadim va doimo dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Mamlakatning xalqaro doiraga qo'shilishi avvalo, Uning suveren tengligi va dahlsizligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi ham o'zining ana shu mutlaq huquqidan foydalangan holda mustaqillik yillarida xalqaro munosabatlarning to'la huquqli a'zosi sifatida bo'y ko'rsatdi. Mustaqillik yillari tariximizning eng shonli davridir. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Mustaqillik yillari o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni holisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir"¹.

Tariximizning ana shu o'tgan davrini aniqrog'i chorak asrlik mustaqil taraqqiyotimiz sarhisob qilinar ekan, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlarni ham alohida qayd qilish lozim.

Istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab o'ta muhim tashqi siyosiy masalani hal qilishga, davlatlararo siyosiy va iqtisodiy munosabatlar sohasida eng maqbul yo'llarni topishga to'g'ri keldi. G'oyat qisqa fursatda bu sohada Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar qo'mitasi, keyinchalik esa, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va boshqa qator davlat boshqaruv organlari tuzildi, diplomatik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yaratildi.

¹ Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. –Т.: Ўзбекистон, 1994, -246.

Mamlakatimizning qulay geosiyosiy o‘rni, uning birinchi navbatda o‘z milliy manfaatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan, har tomonlama chuqur o‘ylangan, mustaqil va izchil tashqi siyosati davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi, xalqaro maydonda obro‘-e’tiborining ortib borishini ta’minladi. “Mustaqillik va suverenitet jahon hamjamiyatiga kirib borishimizga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatishimizga imkoniyat yaratdi”².

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasida e’tirof etilishicha, “O‘zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo alqalari va boshqa aloqalarni o‘rnatadi, ular bilan muxtor vakillarni ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a’zosi bo‘lishi mumkin”³. Mazkur me’yor O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yanada rivojlantirilib, Konstitutsiyaning 17-moddasi 2-qismida respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, faravonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan ajralib chiqish mumkinligi nazarda tutiladi⁴.

Mustaqillikka qadar yurtimizda birorta ham xorijiy davlat elchixonasi yo‘q edi. Hozirgi vaqtda chet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolatxonasi bor. O‘zbekistonda esa 86 ta elchixona va savdo vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan⁵. Hozirgi kunda O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan

²Каримов И.А. Хозирги боскичда демократик ислохатларни мувофиқлаштиришнинг мухим вазифалари. – Т.: Ўзбекистон, 1996. –36.

³Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонуни // Инсон ҳуқуқлари. – Т.: Ўзбекистон, - 246 б.

⁴Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 2003. –36.

⁵Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари/<http://www.mfa.uz/Uzbekistan>

bog‘liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish ishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Qo‘shni davlatlar bilan teng, do‘stona va faol pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi faol ishtirokini ta‘minlamoqda. Ushbu jihatlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi.

Xalqaro munosabatlar va ularning rivoji siyosatshunoslik, xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar tarixi kabi bir qancha fanlar tizimining asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanganligi bois bu masalaga turli davrlarda, turli geografik mintaqalarda o‘ziga xos va bir-biriga o‘xshamagan tadqiqot va nazariyalar ishlab chiqilgan. Xalqaro munosabatlar va undagi davlatning ro‘li xususida, turli ijtimoiy tuzumlar sharoitida xalqaro aloqalar darajasi haqida bir qancha olimlar, siyosatchilar, davlat va jamoat arboblari o‘z fikr va mulohazalari, kitoblari, nazariyalari bilan javob berishga uringanlar. Bu borada R.Koxeyn, L.I.Martin, X.Lipson, Dj.S. Nay, Y.Fergyson, A.Tikner, S.Amin, R.V.Koks, G.Rayt, F.Zelikov kabi tadqiqotchilar izlanishlarini, G.Kissinjer, U.Churchill, Z.Bjezenskiy kabi davlat arboblarning asarlarini ko‘rsatish mumkin. Bu mualliflar va ularning asarlarida yoritilgan fikrlar bir-biridan xalqaro aloqalarni turli yo‘nalishlarda va turli rakurslarda tadqiq etganligi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasining jahon davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixi xalqaro munosabatlarning muhim tomonlari hisoblanadi. O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi o‘ziga xos o‘rni mustaqillik yillarida keng qamrovli o‘rganila boshlandi. Ko‘plab tarixchi va siyosatchi olimlar ushbu mavzuni mustaqillikning ilk davridan boshlab o‘rgana boshladilar.

O‘zbekiston Respublikasining jahon davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari va bu hamkorlik istiqbollari, shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi hamkorligi xususidagi mavzular A.Qosimov, I.Vaskin, R.Farmonov, K.Jo‘raev, A.Mo‘minov, X.G‘ulomov,

A.Xolliev, Ya.G'afforov, A.Tatiboev, A.Qirg'izboev, S.Safоеv, Ch.Ko'charov, E.Nuriddinov, A.Saidov, Q.Usmonov, M.Lafasov, M.Raximov kabi olimlarning asarlarida yoritib berilgan⁶.

Ishning maqsad va vazifalari. Hech bir davlat boshqa davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorliksiz rivojlana olmaydi va taraqqiyotga erisha olmaydi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan olib borgan o'zaro aloqalari, faol tashqi siyosati, xalqaro munosabatlardagi o'rnini tadqiq etish.

- Xalqaro munosabatlar va O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi jarayonlarini tarixiy nuqtai nazardan o'rganish va tahlil qilish;
- Mustaqil O'zbekistonning BMTga qabul qilinishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rnini o'rganish;
- O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari, MDH davlatlari, uzoq va yaqin qo'shni Respublikalar bilan munosabatlari taraqqiyotining yangi bosqichini qiyosiy tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari va tutgan o'rnini o'rganish;
- O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalarini tahlil qilish;
- O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan qardoshlik munosabatlarining yanada rivojlanishi yo'lidagi muammolarni yoritish.

Obyekti va predmeti. Mavzuning obyekti davlatlararo munosabatlar va uning xalqaro doirada olib boradigan siyosiy, iqtisodiy, gumanitar-madaniy, ilm-fan, san'at kabi sohalardagi faoliyati va yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan yangicha fikr-

⁶ Касымов А., Васкын И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. -Т.: Ўзбекистон, 1994. -112 с.; Р.Фармонов. Ўзбекистон Республикаси сиёсий тизимининг шаклланиши ва Ғарб тажрибаси. -Т.: ТДПУ, 2004. – 292 б.; Р.Фармонов, К.Жўраев. Халқаро муносабатлар тарихи. –Т.: ЖИДУ, 2011. – 200 б.; Мўминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. –Т., 2003.- 210 б.; Гуломов Х., Холлиев А. Международные связи Республики Узбекистан с Великобританией и США. -Т., 2002.-118 с.; Гуломов Х., Татибоев А. Центральная Азия и мировая история. -Т., 2004- 22 с.; Гаффаров Я., Холлиев А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. -Т.: 2003.-156 б.; Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. -Т.:Фан, 2004.-280 б.; Сафоев С. Марказий Осиё геополитикаси. -Т.: 2005; Кўчаров Ч.Ш. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари. -Т.: Фан, 2005.- 153 с.; Нуриддинов Э.З. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. -Т.: Чулпон, 2002.-216 с.; Саидов А.Х. Межпарламентские организации мира. -М.: Международные отношения, 2004.-351 с.; Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. -Т.: Молия. 2003.; Лафасов М. Ўзбекистон Республикасининг халқаро алоқалари. -Т., 1995; Рахимов М.А. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. -Т., 2011.-234 с.

mulohazalar, ma'ruza va nutqlarida bildirilgan xulosalar, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Harakatlar Strategiyasida nazarda tutilgan do'stona tashqi siyosat masalalari, mamlakatimiz yetakchi olimlarining, tarixchi va siyosatshunoslarning mazkur mavzu bo'yicha yozgan ilmiy qarashlari mavzuning predmetini tashkil qiladi.

Ilmiy yangiligi shundan iboratki:

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, rivojlanish bosqichlari yoritib berildi;

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlari, BMT qabul qilinishi, jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rni tahlil qilindi;

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari, MDH ga a'zo mamlakatlar bilan munosabatlari taraqqiyotining yangi bosqichda rivojlanishi bayon qilindi;

O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotidagi ishtiroki hamda ushbu tashkilot doirasida Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash yo'lidagi O'zbekiston ilgari surgan takliflar tahlil qilindi;

O'zbekistonning chet davlatlari bilan qardoshlik munosabatlarini tarixiy nuqtai nazardan tahlil etish orqali mintaq va xalqaro davlatlar bilan o'zaro hamkorligi muammolari yangicha yondashuvlar asosida o'rganildi.

Amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida bayon etilgan mulohazalar, nazariy xulosalar va amaliy takliflar xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning o'rini aniqlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotda tutgan mavqeyini o'rganish uchun asos qilib olish mumkin. Ishning natija va xulosalari o'quv yurtlarida mavzuga oid ma'ruzalarni o'qitishda ma'lumot sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 62 sahifadan iborat.

I.BOB. Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezoni.

1.1 Xalqaro munosabatlar tahlili.

Xalqaro munosabatlar tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud. Masalan, xalqaro munosabatlar, bu

- davlat tizimlari va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar hamda munosabatlar, shuningdek jahon maydonida harakatlanuvchi asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va jamoatchilik harakatlari, umuman, keng ma’noda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar majmuidir⁷

- inson hamjamiyatini shakllantiruvchi integrasion aloqalar majmui⁸

-davlatlar va nodavlat tashkilotlari, partiyalar, kompaniyalar va turli davlatlarning yuridik shaxslari o‘rtasidagi munosabatlar va tarixiy ijtimoiy huquqiy amaliyot rivojlanishi natijasidir.⁹

Bu ta’riflarning hech biri obyekt mazmunini to‘la ochib berolmagan. Ularning vazifasi faqatgina obyekt haqida dastlabki tasavvurni berishdan iborat. Shuning uchun tadqiqotchilar xalqaro munosabatlar tushunchasini talqin etishar ekan, nafaqat unga mukammal ta’rif berishga, balki uning mohiyatini aniqlab olishga yordam beruvchi kriteriyalarni ajratishga intilishadi.

Xalqaro Munosabat tushunchasini ta’riflashga oid qayd etilgan yondashuvlar farqli xulosalarga olib kelishi mumkin va bunda o‘ziga xos har biri ustunlik va kamchiliklarga ega. Umuman olganda, xalqaro munosabatlarning turlicha tiplari, ko‘rinishlari, darajalari va holati to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Xalqaro Munosabatlar , shuningdek sinfiylik mezoni, hukmronlik va tobelik munosabati, hamkorlik, o‘zaro yordam va o‘zgaruvchan munosabatlar asosida tasniflanishi mumkin.

Quyidagi mezonlar asosida Xalqaro munosabatning ikki turi ajratiladi:

⁷ Inozemstev. Tanlangan asarlar. 1978.11-bet.

⁸ Шахназаров Г.Х. Грядущий миропорядок. –М., 1981. –С.17

⁹ Xalqaro huquq A.X.Saidov 2001-y.15-bet

1. Kuchlar balansi 2. Manfaatlar balansi.

Xalqaro munosabatlar *ijtimoiy hayot sohasi bo'yicha* iqtisodiy, siyosiy, harbiy-strategik, madaniy, mafkuraviy va boshqa munosabatlarga ajratiladi; *ishtirokchilarga bog'liq ravishda* davlatlararo munosabatlar, turlicha xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolar tasniflanadi; *intensivlik va rivojlanish darajasi asosida* (yuqori, o'rta, past) darajalarga bo'linadi; *geosiyosiy o'lchov asosida* global, mintaqaviy (Yevropa, Osiyo va b.) xalqaro o'zaro ta'sirning submintaqaviy darajasi aytiladi. *keskinlik darajasi nuqtai nazaridan* - barqarorlik va beqarorlik holati; ishonch va dushmanchilik, hamkorlik va nizo, urush va tinchlik va hokazolar tasniflanadi.

Xalqaro munosabatlarning fanga ma'lum barcha tiplari, ko'rinishlari, darajalari va holatlari majmuasi ijtimoiy munosabatlarning alohida turi sifatida namoyon bo'lib, o'zining spesifikasi sababli Xalqaro munosabatning ishtirokchisi tarzidagi u yoki bu ijtimoiy jamoaga xos ijtimoiy munosabatlardan farq qiladi. Shu jihatdan Xalqaro munosabatni ijtimoiy munosabatlarni hududiy tuzilmalar doirasidan chekkaga chiquvchi ichki ijtimoiy munosabatlarning o'zaro harakati turi sifatida ta'riflash mumkin. Har qanday davlatning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralarini orqali echishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

Xalqaro diplomatiya qatnashchilari tashqi siyosatining asosiy maqsadlari - bu davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'ekti sifatidagi o'rnini va rolini yanada kuchaytirishdan, hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Xalqaro huquq

normalariga amal qiluvchi xalqaro munosabatlar subyektlari o'z tashqi siyosatida quyidagi prinsplarga sodiq bo'lib qolmoqda:

- o'zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o'ylangan tashqi siyosat olib borish;
- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasiga muvofiq, mamlakatlar davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bugungi kunda xalqaro diplomatiya maydonida davlatlar va hukumatlarning tashqi siyosatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;
- mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- jahon maydonlarida tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, nizoli hududlarda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish;
- jahonning etakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, mamlakatning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;

- mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;
- davlatning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;
- mamlakatning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta'minlaydigan ko'p muqobilli transport-kommunikatsiya yo'laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- xorijdagi Respublika fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash. Bugungi kun voqeliklari har qanday davlat va hukumat oldiga yuqoridagi masalalarni qo'ymoqdaki, bu norma va yondashuvlarga amal qilish bu davlatlarning xalqaro munosabatlardagi faol ishtirokini ta'minlaydi.

Davlat rahbar organlarning tashqi munosabatlarda ishtirok etuvchi boshqa qatnashchilarga xalqaro munosabatlar sohasida maqsadli ta'sir ko'rsatishiga davlatning *tashqi siyosati* sifatida qaraladi. Tashqi siyosat davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lib, u davlatning ichki siyosatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tashqi siyosat, eng avvalo davlatlar, xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, u yoki bu davlatlarning, ular vakillarining xalqaro maydonda o'z milliy davlat manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu ma'noda tashqi siyosat xalqaro maydondagi milliy manfaatlarini aks ettiradi, ularni amalga oshirishga mos keluvchi usul va vositalarni tanlaydi. Davlatlar tashqi siyosatining asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: aholining moddiy va ma'naviy hayot darajasini, davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini

oshirish; davlatning xavfsizligini, uning milliy suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlash; ichki ishlarga tashqaridan aralashuv bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; davlatning xalqaro munosabatlardagi roli va hurmatini oshirish; davlatning xalqaro maydondagi muayyan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish. Tashqi siyosat quyidagi vazifalarni bajaradi: *muhofaza qilish vazifasi*, u muayyan davlat va uning fuqarolarining chet ellardagi huquq va manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog'liq. Elchixonalar, konsulliklar, vakolatxonalar, madaniy markazlar ushbu vazifani amalga oshirishga yo'naltirilgan institutlar hisoblanadi. Razvedka va kontrazvedka ham o'ziga xos maxsus muhofaza vazifalarini bajaradi: *axborot-vakolat vazifasi*, u muayyan organlarning davlatning xalqaro maydonda ijobiy tasavvur (imidj) vujudga keltirishga yo'naltirilgan faoliyatida aks etadi. Ushbu vazifa madaniy va ilmiy anjumanlar tashkil etish, davlatlarning xorijdagi madaniy markazlari faoliyati va shu kabilar yordamida amalga oshiriladi. Davlatlar faoliyati uchun yaxsi tashqi siyosiy sharoitlarni yaratish, foydali aloqalarni izlashga yo'naltirilgan tashkiliy tashabbuskorlik xatti-harakatlari ham tashqi siyosat vazifalariga kiradi. Ana shu vazifalarni amalga oshirishda tashqi siyosatni amalga oshiruvchi markaziy muassasalarning (Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalarning) faoliyati muhim ahamiyatga ega. Negaki, davlatning aynan tashqi aloqalar bilan shug'ullanuvchi idoralari xalqaro diplomatiyaning boshqa a'zolari uchun bu davlatning ko'zgasiga aylanadi, o'z davlatini esa, faol tashqi munosabatlar va yo'nalishlar doirasiga olib chiqa oladi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar negizida davlatning xalqaro munosabatlardagi faoliyati va uning tahlili yanada ravshanlashadi.

1.2 Jahon siyosati. Ichki va tashqi siyosatning aloqadorligi hamda xalqaro munosabatlarga ta'siri.

“Jahon siyosati” tushunchasi siyosiy fanlarning faol qo‘llaniladigan, ayni vaqtda nisbatan aniq ta’riflangan tushunchalari qatoriga kiradi. Ko’pchilik tadqiqotchilar jahon siyosatini mavhum (abstrakt) tushuncha deb hisoblashadi, ya’ni bu, siyosatshunosning Xalqaro munosabatda shartli ravishda siyosiy tomonni va siyosiy o‘lchovni ajratuvchi qarashidir. Ushbu tushunchaga rus siyosatshunoslari A.E.Bovin va B.P.Lunin tomonidan aniqlik kiritilgan. Ularning fikriga ko‘ra, “Jahon siyosati – bu *xalqaro maydondagi davlatlarning o‘zaro ta’siri va faoliyatidir*; Xalqaro munosabatlar - *davlatlar o‘rtasidagi real aloqalar tizimi* bo‘lib, jahon siyosatidagi hudud, o‘ziga xos muhit va ular harakatlari samarasi sifatida namoyon bo‘ladi.¹⁰

Jahon aloqalari subekti, ishtirokchisi sifatida davlatlardan tashqari, turli xil harakatlar, tashkilotlar, partiyalar maydonga chiqadi. Jahon siyosati xalqaro munosabatlarni shakllantiruvchi faol omil hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar jahon siyosati ta’siri ostida doimiy o‘zgarishda bo‘ladi. Va o‘z navbatida uning mazmuni va xarakteriga ta’sir o‘tkazadi. Bunday pozitsiya jahon maydonida sodir bo‘layotgan voqealarni tushunishni osonlashtiradi va uni jahon siyosati tahlili asosi sifatida qabul qilish mumkin. Ammo, xalqaro siyosat sohasidan farqli ravishda, jahon siyosatida davlatni xalqaro aloqalarning bosh ishtirokchisi sifatida inkor etmaydigan va xalqaro muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi noan’anaviy faktlarga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Shuningdek, tashqi va xalqaro siyosat o‘rtasida farq mavjud. U yoki bu davlatning *tashqi siyosati* deganda – tashqi ishlar vazirligi (yoki unga muvofiq tashqi siyosiy idoralar) tomonidan uning nisbatan keng tuzilmalar doirasida milliy manfaatlar aks ettirilgan holda ishlab chiqilgan *davlat xalqaro siyosatining asosiy prinsiplarini amalda oshirilishi* nazarda tutiladi.

¹⁰ Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М., 2003.

Xalqaro munosabatning nodavlat ishtirokchilariga (masalan, ko'p millatli korporatsiyalar, xalqaro mafiya guruhlar, konfessional jamiyatlar va b.), *ularning ko'pchiligi uchun xalqaro siyosat "tashqi siyosat" hisoblanmaydi.*

Xalqaro siyosat bir vaqtning o'zida : 1. Transmilliy - u yoki bu davlatdan tashqarida, ammo ba'zida unga xilof ravishda amalga oshiriladi. 2. Davlatlashtirilgan - uning subektlari davlatga tegishli yetakchilar guruhidan iborat bo'lib, davlatga oid formal xarakterga ega.¹¹ Albatta, davlatning tashqi va xalqaro siyosati uning ichki siyosati bilan uzviy aloqada bo'ladi, bu holat yagona asos va yakuniy maqsad, yagona zaxira bazasi va yagona subekt kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, transmilliy siyosat va davlatlashtirilgan siyosat borgan sari ko'proq davlatlararo munosabatlarda qo'llanmoqda.

Ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligi hamda o'zaro ta'siri muammosi - siyosiy fanlarning murakkab munozarali muammolaridan biridir. Xalqaro - siyosiy fanlarning har bir yo'nalishi ushbu muammoni siyosatni harakatlantiruvchi kuchlari va manbalari asosidagi o'z shaxsiy tasavvuridan kelib chiqib o'rganadi. Masalan, *siyosiy realizm* tarafdorlari uchun tashqi va ichki siyosat oxir- oqibat kuch uchun kurashga olib keladigan yagona mazmunga ega bo'lsa-da, davlat faoliyatining prinsipial jihatdan farqli sohalarini qamrab oladi. Tashqi siyosat ikki tarkibiy qismdan iborat milliy manfaatlar bilan belgilanadi: birinchisi, tirik qolish imperativi, ikkinchisi, bu manfaatlarning vaqt va makondagi aniq shakli. Ushbu shaklning belgilanishi tashqi dunyo bilan aloqalarda monopoliyaga ega davlatga taalluqli. Milliy manfaatlar asosi doimiy xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun davlat hayotining ichki omillari realistlar tomonidan milliy manfaatlar tabiatiga ta'sir qilish imkoniyatiga ega deb hisoblanmaydi. Boshqa nazariy maktab va yo'nalishlar nuqtai nazariga ko'ra, ichki va tashqi siyosat shunchalik bir-biri bilan bog'liq emas, ularning aloqalari determinativdir. Ular determinatsiyasining ikki versiyasi mavjud: 1. *Ortodoksal marksizm* nuqtai nazariga ko'ra, tashqi siyosat - ichki siyosiy tuzumning sinfiy mohiyati in'ikosi

¹¹ Holsti K.J. *Mirror on the Wall, Which are the Fairest Theories of All?// International Studies Quarterly*. Vol. 33. 1989.

(aksi) bo‘lib, bu mohiyatni ifodalovchi iqtisodiy munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi.¹² *Geosiyosiy konsepsiya* tarafdorlari, “Boy shimol” va “Kamba‘gal janub” nazariyalari, shuningdek, bog‘liqlikning neomarkistik nazariyasi, “jahon markazi”, “jahon periferiyasi” va bu qarashlarga ko‘ra ichki siyosat manbasi tashqi majburlov kuchlaridir. Gap “markaz” va “periferiya” o‘rtasidagi tashqi siyosiy kurashining asosiy maydoni bo‘lgan nosimmetrik o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari mavjudligi to‘g‘risida bormoqda. Ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, u yoki bu davlatlar doirasida partiyalar va harakatlar kurashi, ichki siyosiy jarayonlar ahamiyati, ularning jahon iqtisodidagi o‘rni bilan belgilanadi. *Neorealizm va strukturalizm* vakillari uchun tashqi siyosat ichki siyosatning davomi hisoblanadi, xalqaro munosabatlar esa ichki ijtimoiy munosabatlar davomi sifatida qabul qilinadi.¹³ Tashqi siyosatni ta’riflashdagi hal qiluvchi rolni xalqaro tizimning ichki dinamikasi o‘ynaydi. *Dunyoning o‘zaro bog‘liqligi konsepsiyasi* vakillari mazkur masalaning tahlilida ichki va tashqi siyosat yagona asos - davlatga ega degan fikrga asoslanishadi. Davlat hokimiyatning ikki monopoliyasiga ega: o‘z hududida kuch ishlatish huquqi, qonuniy soliqlar olish huquqi. Lekin davlatning bu ikki monopoliyasini amalga oshirish davlatning harbiy axborot va boshqa ilg‘or texnologiyalari rivoji darajasiga bevosita aloqador bo‘ladi. Shu sababli ushbu konsepsiya tarafdorlari uchun ichki siyosatning tashqi siyosatga nisbatan birlamchiligi yoki aksi holati mutlaq ahamiyatga ega emas, ularning fikriga ko‘ra, har ikki holat, avvalambor, texnologik xarakterdagi omillar bilan belgilanadi. *Transmilliylik maktabi* tarafdorlari yanada ilgari ketishadi. Ularning fikriga ko‘ra, ishtirokchilarning turli ekanligi o‘zaro ta’sir ko‘rinishlari va kanalning har xil ekanligi davlatni xalqoro muloqat markazidan siqib chiqaradi. Ko‘z o‘ngimizda siyosatni ichki va tashqiga bo‘lish ahamiyatli bo‘lmagan global dunyo paydo bo‘ladi. 1969 yilda J.Rozenau tomonidan ilgari surilgan jamiyatning ichki hayoti va xalqoro munosabatlarning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi g‘oyalari bunday

¹² Шахназаров Г.Х. Грядущий миропорядок. –М., 1981. –С.19.

¹³ Богатуров А. Современный международный порядок // Современный международный порядок. – Т.3, № 2(8). Май-август 2005.

yondashuvga katta ta'sir ko'rsatdi. U birinchilardan bo'lib, dunyoning "ikkiga bo'linishi"ga oid fikrlarni bayon etdi: zamonaviylik, bir tomondan, davlatlararo o'zaro munosabatlar maydonlari mavjudligi bilan xarakterlanadi, bu yerda klassik diplomatiya va strategiya "qonunlari" amalda bajariladi; boshqa tomondan, "suverenitetdan tashqari" aktorlar, ya'ni nodavlat ishtirokchilari to'qnashadigan maydon mavjud. Bundan Jahon siyosatining ikki qatlamligi kelib chiqadi: davlatlararo munosabatlar va nodavlat aktorlarning o'zaro aloqalari bir-biri bilan alohida nisbatan mustaqil va bir-biriga parallel ikki "post-xalqoro" siyosatni tashkil etadi, Ichki va tashqi siyosatning o'zaro munosabati muammosini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Deterministik tushuntirish haqiqatning bir qismini aks ettiradi xolos va shu sababli universallikka da'vogarlik qila olmaydi. Aslida u yoki bu mamlakat ichki siyosiy hayotida yuz bergan har qanday muhim hodisa uning xalqaro holatida aks etadi va undan tashqi siyosat sohasida tegishli choralarni ko'rishni talab qiladi.
2. Hozirgi sharoitda ichki va tashqi siyosat o'rtasidagi aloqalar mustahkamlashib bormoqda, shu bois ba'zida bu atamalarning qo'llanishi o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, aslida, gap ularning doimiy ravishda bir-birini to'ldirib borishi to'g'risida ketmoqda. Tashqi siyosatning ustuvor jihatlari taraqqiyotining ichki omillari ta'siri ostida shakllanadi, bu holatda ichki siyosat rejimi maqsadlari – siyosiy demokratiya, bozor iqtisodiyoti va boshqalar hisobga olinadi.
3. Suverenitetdan xoli aktorlarning o'sishi davlatning tugashini bildirmaydi. Ichki va tashqi siyosat bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bir vaqtning o'zida bir tanganing ikki tarafi hisoblanadi, ulardan biri davlatning ichki tomoni, boshqasi davlatning tashqi tomonini ifoda etadi.
4. Siyosiy vaziyatlar va voqealarning murakkablashuvi o'z oqibati bilan shunday holatga olib keladiki, ularning xatti-xarakati nafaqat milliy chegaralar doirasidan chiqadi, shu bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda va ideallarda jiddiy o'zgarishlarga olib keladi va ko'pgina holatlarda odatdagi tasavvurga to'g'ri kelmaydi.

1.3 Xalqaro siyosiy fanlar va u haqdagi turli qarashlar tahlili.

“Xalqaro Munosabatlar nazariyasi” politologiyaning ajralmas qismi : yadrosi siyosiy o‘zaro aloqalar bo‘lgan xalqaro munosabatlar siyosatshunoslikning ajralmas obyektidir. Xalqaro munosabat siyosatning har qanday boshqa turlari (iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalar)ga o‘xshab turli xil vositalar yordamida ro‘yobga chiqivchi manfaatlar, maqsadlar va qadriyatlar raqobati va muvofiqlashuvidan iborat. Bu yerda ichki siyosatdagi kabi, gap hokimiyat va zaxiralar taqsimoti to‘qnashuvi haqida ketmoqda. Olimlarning fikricha, xalqaro munosabatlar fanining asosiy predmeti hokimiyat munosabatlardir. Uning predmeti siyosiy fanlar predmetiga to‘g‘ri keladi, faqat geografik sohada farqlanadi. Dalil sifatida ichki siyosiy va xalqaro – siyosiy jarayonlarning kuchli o‘zaro ta’siri va o‘zaro birlashib ketishiga oid faktlar keltiriladi. Haqiqatan, hozirgi kunda ichki va xalqaro siyosatning o‘zaro bir-biriga singib ketishi fenomeni kuzatilayapti. Siyosiy fanlarni ichki va tashqiga ajratmasdan uning asosiy masalalarini ko‘rib chiqishga bo‘lgan intilishi tushunarli va samaralidir. Oxir-oqibatda, asosida manfaatlar kurashi yotgan siyosatning faoliyat jarayoni sohasidagi ikki jihati va ikki aspektiga taalluqli. Ammo “Xalqaro munosabatlar” o‘zining uzoq yillik tarixiga qaramasdan yetarli darajadagi yirik muvaffaqiyatlarga erisha olmadi Bu sohadagi ilk tadqiqot mil.avvalgi V asrda yashab o‘tgan Fukididning “Peloponnes urushi tarixi” asaridir. Ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishgan yirik vakillar safiga G.Morgentau, R. Aron va A.Yolfers va boshqalarni kiritish mumkin. Ular ushbu fenomenning murakkabligini, uning ichki va xalqaro hayot, psixologiya va tashkilotlar nazariyasi, iqtisodiy soha va ijtimoiy strukturaga bog‘liq ravishda bir yoqlama tushuncha emasligini nomoyon etishgan. Bu holat sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot va matematika, antropologiya va informatika hamda boshqa fanlar imkoniyatlariga tayangan holda davlatning tashqi siyosiy faoliyatini aniq o‘rganishga yordam beradi. Xalqaro Munosabatlarni avtomatlashtirishdagi asosiy to‘siq, uning obyektini identifikasiyalashdagi qiyinchilik tufayli kelib chiqadi.

Xalqaro munosabat nazariyasining ana'naviy obyekti markaziy yoki yuqori hokimiyat, xususan, qonuniy zo'rvonlik va so'zsiz majburlov yo'qligi bilan harakatlanuvchi anarxik, betartib maydon, ya'ni "fuqarolik jamiyatidan oldingi holati" hukmron bo'lgan muhit hisoblanadi. Bu munosabat bilan Raymon Aron xalqaro munosabatlarning spesifik belgisi ularning "urush soyasida" yuzaga kelishidir deb hisoblaydi.¹⁴ Shuning uchun xalqaro munosabatlarni tadqiq qilish haqida gap ketganida, eng avvalo, milliy manfaatlar prinsipi mutloqlashtirilishi va davlatlararo o'zaro ta'sir e'tiborda tutiladi, lekin dunyoning o'zaro bog'liqligi hamda ichki va tashqi siyosatning o'zaro birikib ketishining o'sishi natijasida har qanday chegaralarni kesib o'tuvchi va yagona davlat nazoratidan qochuvchi sotsial munosabatlar va oqimlar "Xalqaro munosabatlar" fanining obyektiga aylanadi. Boshboshdoqlik xalqaro munosabatlarning asosiy kriteriyalari orasidagi imtiyozli o'rnini asta-sekin yo'qotmoqda. Milliy manfaatlar haqida ham shunday deyish mumkin. Ba'zida milliy manfaatlar bog'liq strategik muhit xususiyatlari birinchi o'ringa chiqadi va xalqaro munosabatlarning anarxikligi darajasiga ta'sir o'tkazadi. Piravord-natijada xalqaro munosabatlar obyekti, bir tomondan, tartib va tartibga solish dualizmi, boshqa tomondan, oldindan aytib bo'lmazlikning salmoqli hissasi bilan xarakterlanadi. Qayd etilgan dualizmni yagona nazariya doirasida aks ettirib bo'lmaydi. Amerikalik olim K.Holstining fikriga qaraganda, "Xalqaro munosabatlar" fani uchun nazariy plyuralizm murakkab dunyoning turli shakldagi realligining yagona imkoniy javobidir. Yagona nuqtai nazar yoki alohida metodologiyaga asoslangan muayyan ortodoksallikni o'rnatishga urinish bilish progressi imkoniyatining haddan tashqari soddalashishiga va kamayishiga olib kelishi mumkin.¹⁵ Turli vositalardan foydalanadigan turli imkoniyatlarga ega va turli muhitlarda ro'yobga chiqadigan siyosiy faoliyatning turli ko'rinishlari haqida so'z ketmoqda. Lekin siyosatshunoslikning boshqa sohalaridan farqli tomoni shundaki, Xalqaro munosabat nazariyasi "kuchlar balans", "bir va ko'p qutblilik",

¹⁴Peace and War: A theory of international relations, Raymond Aron. P:117

¹⁵ A pioneer in international relations theory. Kalevi Holsti 1989. P:259

“diplomatiya”, “strategiya kabi o‘zining xususiy tushunchalari va muammolariga ega. Xalqaro munosabat haqidagi fan “milliy manfaat”, “muzokaralar” va boshqa shu kabi umumsiyosiy tushunchalar bilan siyosiy nazariyani boyitdi.

Xalqaro munosabatlarga tizimiy yondashuv o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlangan. 1919 yili Buyuk Britaniyada Xalqaro siyosiy munosabatlar kafedrasining ochilishi bu borada tashlangan ilk qadam edi. Shunday keyin Fransiya, Germaniya, AQSH mamlakatlarida empirik va evristik izlanishlarning natijalari sifatida turli kitoblar – monografiya, to‘plam va risolalar nashr etildi. Ularning barchasida etatistik yondashish, ya’ni xalqaro munosabatlarning bosh aktori, ularning maqsadini belgilab beruvchi va himoya qiluvchi davlatdir degan g‘oya ilgari suriladi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib xalqaro munosabatlarning sub’ektlari sifatida transnatsional birlashmalar, xalqaro tashkilotlar, BMT va uning institutlari, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama davlatlararo aloqalarni olib boruvchi ijtimoiy harakatlar, partiyalar xalqaro siyosatga ta’sir ko‘rsata boshladiki, endi etatistik yondashuv yetarli bo‘lmay qoldi. Shu tariqa xalqaro munosabatlarning sub’ektlari xaqidagi tushunchalar kengaydi. Totalitar kommunistik tuzumning emirilishi bilan bipolyar yondashish ham barham topdi va bu hol butunlay yangi paradigma topishga undadi. Bu borada tadqiqotchilar turli fikrlarni bildirayotgan bo‘lsalar-da, ular izlanayotgan paradigmaning aynan o‘zi ekanligini hali payqamadilar. Xalqaro munosabatlarga tizimiy yondashishlar antropologik paradigma bilan to‘ldirilishi zarur va ushbu paradigma barcha ijtimoiy munosabatlarning, shu jumladan, xalqaro munosabatlarning ham o‘lchovi bo‘ladi degan fikr ilgari suriladi. Olimlar xalqaro munosabatlarni darrov antropologik paradigmaga o‘tkazish amri maholligidan kelib chiqib, uni avvalo proektiv g‘oya, gipotetik model tarzida muhokamaga qo‘yadi, chunki xalqaro munosabatlarni o‘rganish aprior /gipotetik/ ideal modelni yaratishdan boshlanadi. Ma’lumki, xalqaro munosabatlar guruhiiy, milliy, umumijtimoiy, mintaqaviy, etnomadaniy, global va umuminsoniy maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Ularga vaqt va makonda kechayotgan integratsiya va dezintegratsiya, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama

davlatlararo aloqalar, diplomatik munosabatlar, axborot tizimlari, siyosiy harakatlar kabi rang-barang institutlashtirilgan omillar mudom ta'sir etib turadi. Shunga qaramasdan xalqaro munosabatlarga anarxizm to'g'rirog'i, "institutlashtirilgan anarxizm" xos degan fikr nazariyotchilar tomonidan aksioma sifatida qabul qilingan. Taniqli siyosatshunos H.Bull xalqaro munosabatlar jamiyatlarning atributi ekanligidan kelib chiqib, ularni «anarxistik jamiyat» deb ataydi.¹⁶ Demak, tarqoqlikka, buzilishga moyillik—anarxizm xalqaro munosabatlarning belgisidir. Tizimiy yondashishlar esa ushbu salbiy holni kamaytirish va xalqaro munosabatlarni ratsional boshqarish yo'llarini topishga qaratilgandir. Ular yuqorida qayd etilgan institutlashtirilgan omillarning xususiyatlarini o'rganishga ham mos keladi. Xalqaro munosabatlarga tizimiy yondashishni ilk qo'llaganlardan biri AQSHlik siyosatshunos Marton Kaplandir. U o'zining «Xalqaro munosabatlarda tizimlar va jarayonlar» kitobida xalqaro munosabatlarni evristik model sifatida

1.kuchlarning muvofiqlashgan tizimi 2.egiluvchan bipolyar tizim 3.qattiq bipolyar tizim 4.universal tizim 5.ierarxik tizim 6.yakka tartibda taqiqlash "veto" tizimlariga ajratadi.¹⁷ Muallifning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu tizimlardan birinchisi va ikkinchisi tarixiy taraqqiyotda uchraydi, qolganlari esa gipotetik modellardir. Agar tarixda uchraydigan tizimlar zarur imkoniyatlar tug'ilganida yangi tizimlar paydo bo'lishini oldindan tasavvur qilishga, tarixda uchramaydigan tizimlar esa, agar shunday tizimlar paydo bo'lsa, xalqaro munosabatlarni qanday olib borish zarurligini bilib qo'yishga yordam beradi. Mavjud tizimlar reallikdir, gipotetik tizimlar ehtimollikdir va ular ehtimolliги bilan nazariy qarashlarni rivojlantiradi. Aks holda nazariya mavjud yoki tarixda sodir bo'lgan voqelikni qayd etish bilan cheklanadi, bu esa aqlu idrok imkoniyatlarini sun'iy cheklashdan boshqa narsa emas.«Kuchlarning muvofiqlashgan» tizimi aslida «kuchlarning nomuvofiqlashgan» tizimi deb atalishi lozim. Bu o'rinda M.Kaplan xalqaro munosabatlarga

¹⁶ The anarchical society. Hedley Bull. <https://www.amazon.co.uk>books>.

¹⁷ System and process in international politics, Marton A.Kaplan 1957.P:128

pozitiv voqelik sifatida yondashgan, u ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda, xalqaro munosabatlarda eng avvalo kuch, zoʻravonlik etakchi oʻrinda turganini eʻtiborga olmagan. M.Kaplan, «kuchlarning muvofiqlashgan» tizimiga eng kamida beshta, imkoni boʻlsa, undan ham koʻproq davlatlar, milliy aktorlar kirishi zarur, aks holda bipolyar tizim yuzaga keladi, deb koʻrsatadi. Birinchisida muzokaralar orqali tinchlikni saqlash va bu boradagi harakatlarni kengaytirish, oʻz mavqeini saqlab qolish yoki mustahkamlash, paradigmani oʻrnatmoqchi boʻlgan aktorning militaristik harakatlarini mahv etish, oʻzidagi zaif aktorlarning potensialini oshirish imkoni mavjud, ikkinchisida esa kim qudratli, kuchli, uyushgan, xullas, «kim oʻzdi» tamoyiliga muvofiq nafaqat xalqaro munosabatlardan, shu bilan birga, tarix sahnasidan siqib chiqarish ustun boʻladi. «Kuchlarning muvofiqlashgan» tizimi oʻzaro nizolarni, murosa, muzokara va kelishuvlar orqali hal qiladi, bipolyar tizim konfrontatsiyani kuchaytirib, nizolar va urushlarni keltirib chiqaradi, birinchisida bir-birini kuzatish, bir-biriga yordam berish, tizim ichida, barqarorlikni, xalqaro bitimlarga toʻla rioya etishni taʼminlash imkoni mavjud, ikkinchisida esa birini-biri, oʻzaro va xalqaro shartnomalarni buzib, harbiy kuch bilan boʻlsa-da, mahv etish istagi kuchli. M.Kaplan birinchi va ikkinchi tizimlarga oid qarashlarni asoslash uchun turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy omillarga, Yevropa, AQSH va SSSR tajribalariga murojat qiladi, ularning xalqaro munosabatlardagi oʻrnini ochib beradi.¹⁸ Shu bilan birga M.Kaplan qarashlaridagi spekuliyativ yondashishlarni sezmaslik mumkin emas. Masalan, ayniqsa, keyingi 3-6 tizimlar haqidagi fikrlarda real voqelikdan kelib chikish emas, balki real voqelikni xayoliy-nazariy modelga moslashtirish, itoat ettirish koʻzga tashlanadi.

Xalqaro munosabatlarga siyosiy-nazariy oqimlar nuqtai nazaridan yondashish mavjud. Ularda xalqaro munosabatlar 1.Siyosiy realizm--norealizm; 2 liberalizm—globalizm—plyuralizm /demokratizm/. 3.neomarksizm—strukturalizmga guruhlanadi. Tizimiy va analitik yondashuvlar esa ushbu siyosiy—nazariy oqimlarni real voqelikda tadqiq etishga, ilmiy-nazariy konsepsiyalarni amaliyot

¹⁸ Oʻsha joy.

bilan qiyoslashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan ular yordamchi tadqiqot usullari deb qaraladi. Birinchi guruh yondashuv xalqaro munosabatlarning asosiy aktyori hokimiyat davlat deb biladi. Unga ko‘ra, davlat barcha, shu jumladan, xalqaro /davlatlararo/ munosabatlarning yagona sub‘ekti, chunki ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, siyosiy o‘zgarishlar davlatning ijodi, faoliyati mahsulidir. Xalqni-xalq, millatni - millat sifatida shakllantirib, uyushtirib, ularni xalqaro hayot sahnasiga olib chiqayotgan kuch, sub‘ekt davlat bo‘lib qolmoqda. Biroq xalqaro munosabatlarda bunday sub‘ekt yo‘q, shu bois ularga anarxizm xos.

Shuning uchun siyosiy realizm milliy aktyorlar pog‘onasida xalqaro munosabatlar sub‘ekti davlat bo‘lib qolayotganidan va xalqaro aktorlar pog‘onasida esa anarxizm ustunligidan kelib chiqadi. Mohiyatan ushbu yondashuv M.Kaplanning «kuchlarning muvofiqlashgan» tizimiga yaqindir. Norealizm esa, etatistik karashni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar bilan to‘ldiradi, aynan shuning uchun ham u «norealizm» nomini olgan, ammo u ham davlatni bosh aktorligini rad etmaydi. Ikkinchi guruh yondashuv jahonda sodir bo‘layotgan liberal—demokratik o‘zgarishlar va global jarayonlarni xalqaro munosabatlar bilan bog‘laydi. Unda ichki va tashqi siyosatlarning uyg‘unlashayotganiga, ayniqsa nodavlat institutlari va transnatsional birlashmalarining integratsiyada keng ishtirok etayotganiga, ijtimoiy hayotda globallashuv real voqeliqqa aylanayotganiga e‘tibor qaratadi. Bu borada R.Koxeyn, L.I.Martin, X.Lipson, Dj.S. Nay, Y.Ferguyson, A.Tikner, B. Ba‘zi izlanishlarini misol qilib keltirish mumkin, Masalan, Dj.S.Nay fikriga ko‘ra, davlatlararo (xalqaro) munosabatlarda hamkorlik iqtisodiy va ekologik inqirozlarni hal etishda «ikki tomon uchun ham foydali». Xalqaro siyosatdagi transformatsiya asosan ushbu foydali hamkorliklar natijasi bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, liberal yondashuv davlatning bosh aktorligini inkor etmaydi, biroq uni yagona aktyor deb ham qaramaydi, u xalqaro munosabatlar sub‘ektlarining erkin iqtisodiy hamkorligini rang-baranglashtirish, kengaytirish orqali nizolarni, urushlarni bartaraf etish tarafdoridir. Uchinchi guruh yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda yetakchilik qilayotgan lider – davlatlarning boshqa, ayniqsa

iqtisodiy qoloq mamlakatlarga tazyiqini kamaytirish, xalqaro munosabatlarga ta'sir etolmayotgan milliy davlatlar va xalqlarning faolligini oshirish, kollektiv xavfsizlik konsepsiyasiga tayanadi. Bu borada S.Amin, R.V.Koks, G.Rayt, F.Zelikov kabi tadqiqotchilarning izlanishlarini keltirish mumkin. Albatta, yondashuvlar bular bilan tugamaydi, biroq ularda ijtimoiy taraqqiyotning bosh sub'ekti va ob'ekti Inson chekkada qolayotganini ko'rish qiyin emas. Barcha yondashuvlar asosan davlat va ijtimoiy institutlar maqsadini ko'zlaydi, ularning xalqaro siyosiy hayotdagi mavqeini oshirish yo'llarini izlaydi. Bu yondashuvlarning xalqaro siyosiy reallikka yaqinligini, ularning xalqaro munosabatlar taraqqiyotida ma'lum bir bosqichlar ekanini inkor qilmagan holda shuni aytish o'rinli, kelgusida amalga oshiriladigan yondashuvlar antropologik paradigma bilan to'ldirilishi, boyitilishi zarur. Chunki «siyosatning pirovard maqsadi insonni ulug'lovchi qadriyatlar tomonga o'girilish, siyosatchi-amaliyotchilarning fikr va harakatlarini antropologik paradigma darajasiga ko'tarishdir». Ushbu fikr xalqaro munosabatlarning sub'ektlariga ham bevosita taalluqlidir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xalqaro munosabatlar taraqqiyotini uch bosqichga ajratish mumkin.

1-bosqich. Etatistik yondashuvlar xukmronlik qilgan davr. Ushbu bosqich nihoyasiga etmadi, chunki ko'p mamlakatlarda davlat, hokimiyat xalqaro munosabatlarning yagona aktyori bo'lib qolmoqda.

2-bosqich. Davlat bilan bir qatorda xalqaro birlashmalar, nodavlat tashkilotlari, fuqarolik institutlari xalqaro munosabatlarning to'la huquqli aktyoriga aylanadigan davr. Bu bosqichga o'tish etatistik yondashuv hukmronlik qilgan davrlardan uzoqqa cho'zilsa cho'ziladiki, ammo ulardan kam vaqtda qaror topmaydi. Aynan ushbu bosqichda antropologik paradigmanning ma'lum bir belgilari namoyon bo'la boshlaydi.

3-bosqich. Unda xalqaro munosabatlarda Inson manfaatlari ustuvorlik qiladi, davlat va fuqarolik institutlarining siyosiy faoliyati, xalqaro aloqalari Inson taraqqiyoti maqsadlariga quriladi. Bu antropologik paradigma hozir gipotetik

xususiyatga ega. Ammo uning ayrim qirralarini inson huquqlarining milliy huquqlar tizimlaridan joy olayotganida, ushbu huquqlarga rioya etishning demokratik taraqqiyot mezonini sifatida e'tirof qilinayotganida kuzatish mumkin.

Antropologik paradigma xalqaro munosabatlarni umuminsoniy axloqqa, ma'naviy qadriyatlarga, siyosiy texnologiyani insoniylashtirishga va madaniylashtirishga etaklaydi. Natijada xalqaro munosabatlar gumanitar munosabatlarning, siyosiy reallik gumanitar reallikning qaror topgani bilan o'lchanadi.

II.BOB. O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro munosabatlardagi o‘rni hamda uning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi

2.1 O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida.

1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining rasmiy e‘lon qilingan kuni – davlatimizning xalqaro hamjamiyatga keng ko‘lamli va dinamik integratsiyasi boshlangan sana hisoblanadi. 2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston dunyoning 130 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilotlarning vakolatxonalari, 3 ta diplomatik mavqega ega bo‘lgan savdo vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 48 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lib, turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan aloqalarni rivojlantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.¹⁹ Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin, deb ta‘kidlangan mamlakatimiz Konstitutsiyasining 17 moddasida.²⁰ O‘zbekiston tashqi siyosati milliy manfaatlarning ustuvorligi, xalqaro huquq me‘yorlariga rioya etish, bahsli masalalarni tinch yo‘l bilan hal qilish tamoyillariga asoslanadi.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 17-modda, 8-bet

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 17-modda, 8-bet

Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni o‘zaro ishonch, hurmat, tenglik, manfaatdorlik tamoyillari asosiga quradi. Bu tamoyillarga qat’iy sodiqlik, shuningdek, dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, xalqaro gumanitarmadaniy hamkorlikni rivojlantirish, ekologik muammolarning oldini olish borasidagi sa’y harakatlari bois bugun mamlakatimiz jahon siyosat maydonidagi muhim subyektlardan biriga aylandi. Mamlakat Tashqi siyosiy faoliyati kontseptsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari bu mintaqa bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etishga, jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni izga tushirishga ko‘maklashishga, Markaziy Osiyoning transchegaraviy daryolari suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanishni va mintaqada ekologik barqarorlikni ta’minlashga, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini yakunlashga, yangi tahdidlarga qarshi kurash borasida samarali chora-tadbirlar ko‘rishga, barcha qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro yaqin, manfaatli va amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgandir. O‘zbekiston o‘zining yaqin qo‘shnilari bilan munosabatlarda doimo ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo‘lib qoladi, mintaqadagi barcha dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda, amaliy muloqot va xalqaro huquq normalari asosida hal etilishini yoqlaydi. O‘zbekiston Afg‘onistonga nisbatan an’anaviy tarzda bu davlatning ichki ishlariga aralashmaslik pozitsiyasiga asoslanib, yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona siyosat yuritadi, u bilan o‘z munosabatlarini o‘zaro milliy manfaatlardan kelib chiqib va afg‘on xalqi tanlagan yo‘lni hurmat qilgan holda ikki tomonlama asosda tashkil etishni ma’qul topadi. O‘zbekistonning fikriga ko‘ra, afg‘on muammosini hal etishning yagona yo‘li - siyosiy muzokaralar yo‘li bo‘lib, donor-mamlakatlarning moliyaviy, iqtisodiy va insonparvarlik

ko‘magi, hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining faol ishtiroki asosida o‘zaro kurashayotgan tomonlar o‘rtasida kelishuvga erishishdir.

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi MDHga a‘zo mamlakatlardir. O‘zbekistonni bu davlatlar bilan tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalar bog‘lab turadi. O‘zbekiston MDHning barcha mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini teng huquqli, o‘zaro foydalimanfaatli, bir-birining manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilish asosida yo‘lga qo‘yishni davom ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi shartnoma (2004-yil 16-iyun), Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma (2005-yil 14-noyabr), shuningdek Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiya (2012-yil 4-iyun) asosida Rossiya Federatsiyasi bilan do‘stona aloqalarni izchil rivojlantirish va har tomonlama mustahkamlash har ikkala mamlakat manfaatlariga mos keladi hamda mintaqada barqarorlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni va investitsion hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda diversifikatsiya qilish, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish va mintaqaviy xavfsizlik masalalaridagi hamkorlik - O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning muhim jihatlaridir.

Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan mushtarak manfaatlar asosida har tomonlama o‘zaro foydali va amaliy hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Ushbu munosabatlar 2002 yilning 12 martida imzolangan O‘zbekiston Respublikasi bilan AQSh o‘rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlik asoslari to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asoslanadi. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatishga ko‘maklashish, transmilliy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va islohotlar jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida investitsiyalar va texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari ikki tomonlama aloqalarning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Yevropa davlatlari, shuningdek Yevropa Ittifoqi va NATO bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga muhim e‘tibor qaratadi. Savdo, investitsion va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish, yuksak texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta’lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi aloqalar, shuningdek mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash masalalari O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari hamda tashkilotlari bilan hamkorligining muhim yo‘nalishlaridir

Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi barcha yetakchi mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli asosda savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish va bunda O‘zbekiston iqtisodining ustuvor ishlab chiqarish sohalariga investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb etish, shuningdek fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va turizm sohalarida aloqalarni rivojlantirish hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish tarafdoridir. Jumladan, Hindiston va Pokiston bilan savdo-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor.

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bilan, jumladan IHT va ITB doirasida o‘zaro manfaatli munosabatlar iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari, moliya va investitsiya sohalarida izchil rivojlanmoqda va mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston nufuzli xalqaro tashkilotlar ishida, eng avvalo BMT faoliyatida ishtirok etib kelmoqda. O‘zbekiston BMTni dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish, hozirgi shiddat bilan davom etayotgan globalizatsiya jarayonlarida davlatlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashga ko‘maklashish borasidagi yagona universal va mas’ul tashkilot deb biladi. Respublikamiz shuningdek mintaqaviy tashkilotlar ishida ham faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotini doirasida mintaqaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurash, a’zo mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashish,

qo'shma infratuzilmaviy va investitsion loyihalarni amalga oshirish borasidagi hamkorlikni rivojlantirish tarafdori.

O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama hamkorligining ustuvor yo'nalishlariga savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, xavfsizlikning transmilliy tahdid va xavf-xatarlariga qarshi kurashish masalalari hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimiz BMT, SHHT, MDH, Islom konferensiyasi tashkiloti kabi o'nlab xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarga a'zo. Davlatimizning Yevropa Ittifoqi, NATO, ASEAN, Arab davlatlari ligasi kabi tuzilmalar bilan hamkorligi rivojlanmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning ilk yillarida BMT minbaridan turib, dunyo ahlining e'tiborini Afg'oniston mojarosi va Orol muammosiga qaratgani e'tiborlidir. Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan Afg'onistonga qo'shni davlatlar hamda Rossiya va AQSHdan iborat "6+2" muloqot guruhi tuzildi, Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi.²¹ Hozir dunyoda siyosiy va ekologik vaziyat shiddat bilan o'zgarmoqda. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti NATOning 2008 yilgi Buxarest sammitida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha "6+2" muloqot guruhini unga Shimoliy Atlantika alyansini qo'shgan holda "6+3" muloqot guruhiga aylantirish taklifini ilgari surdi. Bu taklif ko'plab mamlakatlarda qizg'in kutib olindi.

2006-yil 8-sentabrda Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida mintaqamizning besh mamlakati tomonidan shu to'g'ridagi shartnoma imzolandi. Yadro qurolidan xoli zonalar Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma doirasida barpo etiladi va mazkur shartnomani hayotga tatbiq etishning asosiy mexanizmlaridan biri sanaladi. O'zbekistonning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari global yadroviy xavfsizlikni ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Mintaqamiz mamlakatlari yadro qurolini ishlab chiqarish, xarid qilish va joylashtirishni ta'qiqlash majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Ayni paytda

²¹ <http://uza.uz/uz/politics/xalqaro> hamkorlik.

Respublikamizning Yevropa, Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va arab dunyosi bilan munosabatlari rivojlanmoqda. Yevropada ham, Osiyoda ham, ummon ortida ham O‘zbekiston bilan munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko‘tarish to‘g‘risida hujjat imzolagan davlatlar talaygina. Mamlakatimizning xalqaro miqyosda gumanitar madaniy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlari diqqatga sazovor. Qator tarixiy shaharlarimizdagi me’moriy obidalar, ajdodlarimizdan qolgan yozma va og‘zaki ijodiy meros YUNESKOning Jahon merosi durdonalari ro‘yxatiga kiritilgan. Bu xalqaro hamjamiyatning o‘zbek xalqining milliy madaniy qadriyatlariga hurmati va ayni paytda bunday qadriyatlarni tiklash, asrabavaylash, o‘rganish, targ‘ib etish, kelgusi avlodlarga yetkazish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarga berilgan munosib bahodir.

2.2 O'zbekiston tashqi siyosatining maqsad va vazifalari. Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatimiz Konstitutsiyasiga, «Tashqi siyosiy faoliyat Konsepsiyasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunlarga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning dasturiy nutqlari va ma'ruzalariga, mamlakatimiz tomonidan imzolangan xalqaro konvensiya va shartnomalarga asoslanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining ilk kunlaridanoq milliy manfaatlarga asoslangan va har tomonlama puxta o'ylangan tashqi siyosat olib bormoqda. O'zbekiston tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, uning mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyatini mustahkamlab kelmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali echishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy maqsadlari - bu davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini yanada kuchaytirishdan, hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida quyidagi printsiplarga sodiq bo'lib qolmoqda:

- o'zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o'ylangan tashqi siyosat olib borish;

- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi. O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik uchoqlariga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob'ektlari joylashtirilishiga yo'l quymaydi. Konstitutsiyaga, «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga va Harbiy doktrinaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faqat davlat suvereniteti va mamlakat hududining yaxlitligini, aholining tinch xayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;
- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish;
- jahonning etakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, O'zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;
- mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;
- O'zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;
- O'zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta'minlaydigan ko'p muqobilli transport-kommunikatsiya yo'laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash.

Davlat rahbar organlarning tashqi munosabatlarda ishtirok etuvchi boshqa qatnashchilarga xalqaro munosabatlar sohasida maqsadli ta'sir ko'rsatishiga davlatning *tashqi siyosati* sifatida qaraladi. Tashqi siyosat davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lib, u davlatning ichki siyosatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tashqi siyosat, eng avvalo davlatlar, xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, u yoki bu davlatlarning, ular vakillarining xalqaro maydonda o'z milliy davlat manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu

ma'noda tashqi siyosat xalqaro maydondagi milliy manfaatlarni aks ettiradi, ularni amalga oshirishga mos keluvchi usul va vositalarni tanlaydi. Davlatlar tashqi siyosatining asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: aholining moddiy va ma'naviy hayot darajasini, davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirish; davlatning xavfsizligini, uning milliy suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlash; ichki ishlarga tashqaridan aralashuv bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; davlatning xalqaro munosabatlardagi roli va hurmatini oshirish; davlatning xalqaro maydondagi muayyan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish. Tashqi siyosat quyidagi vazifalarni bajaradi: *muhofaza qilish vazifasi*, u muayyan davlat va uning fuqarolarining chet ellardagi huquq va manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog'liq. Elchixonalar, konsulliklar, vakolatxonalar, madaniy markazlar ushbu vazifani amalga oshirishga yo'naltirilgan institutlar hisoblanadi. Razvedka va kontrazvedka ham o'ziga xos maxsus muhofaza vazifalarini bajaradi: *axborot-vakolat vazifasi*, u muayyan organlarning davlatning xalqaro maydonda ijobiy tasavvur (imidj) vujudga keltirishga yo'naltirilgan faoliyatida aks etadi. Ushbu vazifa madaniy va ilmiy anjumanlar tashkil etish, davlatlarning xorijdagi madaniy markazlari faoliyati va shu kabilar yordamida amalga oshiriladi. Davlatlar faoliyati uchun yaxshi tashqi siyosiy sharoitlarni yaratish, foydali aloqalarni izlashga yo'naltirilgan tashkiliy tashabbuskorlik xatti-harakatlari ham tashqi siyosat vazifalariga kiradi. Ana shu vazifalarni amalga oshirishda tashqi siyosatni amalga oshiruvchi markaziy muassasalarning (Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalarning) faoliyati muhim ahamiyatga ega

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; Davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; Inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; Ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning

umum e`tirof etilgan qoidalari va normalarining ustivorligi; Davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta`minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo`stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; Tajavuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; Davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

2.3 O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlardagi o‘rni va uning boshqa davlatlar va tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalari.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlardan muhimi uning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olganidir. 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Qonun»da O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi yo‘li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan unda: «Xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub'ekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yaroqlardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslikdan iborat»²², - deb qayd qilindi. Oradan ma'lum muddat o‘tgandan so‘ng 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bu yo‘l yana bir bor ta'kidlanib davlatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari qonun bilan mustahkamlab qo‘yildi. «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tinchligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va me'yorlariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin»²³, - deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida. Mamlakat tashqi siyosatiga doir bunday qoidalar birinchi Prezident I.A.Karimovning nutq, maqola va risolalarida yanada oydinlashtirildi. U o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida:«O‘zbekistonning

²²Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Инсон ҳуқуқлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997, -76.

²³Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Т.: Ўзбекистон, 2003, -36.

milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir»²⁴, - debta'kidlab o'tilgan. Hukumatimiz o'zining tashqi siyosatida mana shu ko'rsatmalarga amal qilib keldi. O'zbekistonning tashqi siyosat borasida tutgan yo'li davlatimiz biron bir buyuk davlat ta'sir doirasiga tushib qolmasligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va mezonlariga asoslanadi.

1992 yil 29 yanvarda BMT xavfsizlik kengashi o'zining 737 -qarorini ovozga qo'ymasdan qabul qildi va Bosh Assambleyaga O'zbekiston Respublikasini BMT ga qabul qilishni tavsiya etdi. 1992 yil 2 martda BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida O'zbekiston ovozga quyilmasdan, yakdillik bilan ma'qullash asosida BMT ga qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi bor Xalqaro hamjamiyatning teng huquqli sub'ekti sifatida BMT a'ziligiga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mamalakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi. O'zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, qo'shni Afg'onistonda birodarkushlik urushini to'xtatish, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod zonaga aylantirish, narkobiznesga qarshi kurashda barcha davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish maqsadlarida, ya'ni umummanfaat yo'lida

²⁴И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли.- Т.: Ўзбекистон, 1993, -76.

foydalanmoqda. 1993 yil fevralida Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ta`sis etildi va u ish boshladi.

O`zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sa`yi-harakatlari natijasida respublikamizdagi BMT vakolatxonasi BMT ning Taraqqiyot dasturi, Qochoqlar ishi bo`yicha olib qo`mita komissari, Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg`armasi, narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, «Bolalar jamg`armasi» singari ixtisoslashgan muassasalarni o`z tarkibiga birlashtirishga muvofiq bo`ldi. Xususan, uning boshlig`i (sobiq) Xolid Malikning faol ishtirokida O`zbekistonda ko`plab xalqaro tadbirlar o`tkazildi.

O`zbekistonning jahon hamjamiyat bilan integrallashuvida BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

1993 yil 29 oktyabrda BMT ta`lim, fan va madaniyat bo`yicha qo`mitasi (UNESKO) ning Parijdagi qarorgohida O`zbekiston UNESKO a`ziligiga qabul qilindi. O`zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti, jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, xalqaro pochta ittifoqi, Xalqaro Olimpiada qo`mitasi va ko`plab boshqa tashkilotlarning a`zosi bo`ldi.

O`zbekiston BMT ning 50 yilligiga bag`ishlangan tantanalarda faol qatnashdi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil sentyabr-noyabr oylarida bo`lib o`tgan 50-yubiley sessiyasida qatnashib bu nufuzli tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir o`z takliflarini bayon qildi. I.A.Karimov bu ulkan minbardan turib, davlat arboblari va siyosatdonlar diqqatini quyidagi masalalarga qaratdi :

Birinchi-milliy xavfsizlik masalasini hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nazaridan qaytadan ko`rib chiqish: Ikkinchi masala BMT Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish, uning jahon mamlakatlari taraqqiyotiga qo`shadigan hissasidan kelib chiqib, o`z maqomini kuchaytirish masalasidir: Uchinchi masala qator mamlakatlararo va mintaqalararo faoliyat ko`rsatayotgan xalqaro tashkilotlar maqomini bir oz o`zgartirib, uni BMT doirasiga kiritish zarurligi.

O`zbekiston 1992 yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo`yicha katta tadbirlar amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot -Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a`zo bo`lib kirdi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning 1992 yil 9-10 iulda bo`lgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etib, unda nutq so`zlashi va Kengashning 10 iyulda bo`lgan majlisiga raislik qilishi O`zbekistonning jahon hamjamiyatda munosib o`rin egallayotganligining dalilidir. 1995 yil iulda Toshkentda Y.X.H.Tning aloqalar bo`yicha mintaqaviy burosi ochildi va faoliyat ko`rsatmoqda. YXHTning 1996 yil dekabrda Lissabonda bo`lgan samitida I.Karimov mojarolar uz bergan hududlarga yashirincha qurol-yarog` etkazib berishni to`xtatish, 1999 yil 11-12 noyabr kunlari Istambulda bo`lgan sammitida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tashkil etish to`g`risida muhim takliflarni ilgari surdi va ular sammit ishtirokchilari tomonidan ma`qullandi.

O`zbekiston ko`pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi Yevropa ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi tashkiloti, qo`shilmaslik harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda. 1996 iul oyida Florensiya shahrida Evropa ittifoqi bilan O`zbekiston o`rtasida sherikchilik va hamkorlik to`g`risida Bitim imzolandi. Bu hujjat O`zbekiston, Yevropa ittifoqi va unga a`zo bo`lgan mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo`lib, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi.

O`zbekiston bilan Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkilotlari -NATO o`rtasida o`zaro tushunish va hamkorlik mavjud. 1995 yil iul oyida O`zbekiston NATO ning «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturi tomonidan 1995 yilda AQShda, 1997 yilda Qozog`iston va O`zbekistonda o`tkazilgan harbiy mashqlarida O`zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy texnik tayyorgarligini yanada ko`tarishga xizmat qildi. O`zbekiston tarixan qisqa bir davrda xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy

xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko`tarildi.

Mustaqil davlatlar hamdo`stligi (MDH) - bir butun davlat, federasiya yoki mamlakat emas, harbiy blok ham emas, davlatlar hamdo`stligining yangicha shakli. Unga kiruvchi har bir davlat xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli sub`ektidir. MDH 1991 yil 8 dekabrda Minsk shahrida, SSSR ning barham topishi munosabati bilan shakllandi. O`sha kuni Belovejskoe - Pushcheda Rossiya, Ukraina, Belorussiya rahbarlari - B.Elsin, L. Kravchuk S. Shushkevichlar MDH ni tuzish to`g`risida shartnoma imzoladilar. 1991 yil 13 dekabrda Ashgabadda O`zbekiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashib MDHga, uni ta`sis etuvchilar maqomida kirishga tayyor ekanliklarini bildirib, Bayonot e`lon qildilar. 1991- yil 21- dekabrda Almatida 11 davlat- Rossiya, Ukraina, Belorus, Qozog`iston, O`zbekiston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya boshliqlarining kengashi bo`ldi. O`sha kuni ular Belovejskoe-Pushche shartnomasi yuzasidan protokol imzolab, «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo`ldilar.

MDH ning tashkil topishi XX asrning muhim voqealaridan biri sifatida tarixga kirdi. 1991-2000 yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30ga yaqin kengashlari bo`lib o`tdi. Ularda umumiy manfaatlarga doir 1400 ga yaqin shartnoma, bitim va boshqa hujjatlar imzolandi. Ularning barchasi uzoq yillar bir davlat bo`lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda-mustaqil davlatlararo munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratildi. O`zbekiston avval boshdan MDH tarafdori bo`lib chiqdi. Chunki, sobiq Ittifoq davridagi respublikalararo an`anaviy munosabatlar yangi vaziyatga mos ravishda davom ettirilishi kerak edi. Bunday Hamdo`stlik mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlab, bu davlatlarning siyosiy mustaqilligiga dahl qilmasligi lozim. O`tish davri qiyinchiliklarini MDH davlatlarining barchasi o`z boshidan kechirdi. Bu esa iqtisodiy bo`hronlarni

bartaraf etish, bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida yillar mobaynida bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq ishlab chiqarish va xo'jalik munosabatlarini yanada yaxshilash zarur edi. Bu kabi masalalarni hal etishga xizmat qiluvchi ko'plab me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etishda O'zbekiston alohida o'ringa ega bo'ldi. O'zbekiston MDH ga a'zo davlatlar bilan o'zaro ikki taraf uchun ham foydali hamkorlik qilishga hamisha tayyor va o'z tashqi siyosatida shunga intilib kelayapti. MDH ga a'zo ko'p mamlakatlar bilan ana shunday hamkorlikda ish olib borilmoqda.

1991-2001 yillarda Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldava, Gruziya, Ozarbayjon, Litva, Latviya va Markaziy Osiyo respublikalari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalar o'rnatildi va u rivojlanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. Rossiya Federasiyasi Prezidenti V.V.Putinning 2000 yil 18-19 may kunlari O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi, savdo iqtisodiy va harbiy hamkorlik qilish to'g'risida imzolangan bitimlar ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. 2000 yil 20 iun kuni Moskvada bo'lib o'tgan MDH mamlakatlari davlat rahbarlari Kengashi samarali bo'ldi. Sammitda 2000 yilgacha bo'lgan muddatda Hamdo'stlikni rivojlantirish borasidagi ishlar dasturi muhokama qilindi. Qabul qilingan mazkur hujjat MDH doirasida erkin savdo zonasi barpo etish borasidagi to'lovlar va soliqlar tartibini muvofiqlashtirishga kelishib olindi. Sammitda MDH ning terrorchilikka qarshi kurash markazini tashkil etish, shuningdek MDH davlatlarining 2003 yilgacha xalqaro terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi dasturi to'g'risidagi masalalar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Har bir davlatning obro'si va qudrati uning qancha va qaysi davlatlar bilan olib borayotgan tashqi aloqalariga ham bevosita bog'liqdir. O'zbekiston bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarida ishonchli hamkor sifatida o'z mavqeini to'la nomoyon eta oldi. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar - Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik, do`stlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyodagi bu beshta davlatning qadimiy tarixi, madaniyati, tili va dilining birligi, tomirlarining tutashib ketganligi shuni taqozo etadi. O`zbekiston rahbariyati bu hududdagi davlatlar, xalqlar manfaatlariga mos tushadigan teng huquqli hamkorlik ko`lamini tobora kengaytirib, mustahkamlab bormoqda. Tojikiston fojeasini bartaraf etishda O`zbekistonning siyosiy va iqtisodiy ko`magi, qardosh besh mamlakatning O`rta yer dengizi, Hind okeani, Tinch okeani bilan bog`lovchi temir yo`llar qurilishida hamda orolni qutqarish harakatida O`zbekistonning faol ishtiroki buning yorqin misolidir. Markaziy Osiyo davlatlarining 1990 yil iundagi Almata uchrashuvida o`zaro do`stlik va hamkorlikning muhimligi ko`rsatildi. Bu uchrashuv, iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun besh davlat o`z iqtisodiy resurslarini birlashtirishi zaruriyatini ko`rsatdi. Bu davlat rahbarlari har yili uchrashish to`g`risida kelishib oldilar. Bu an`ana davom etib, har yili 2-3 marotaba Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari kengashlari bo`lib o`tmoqda. 1994 yil 30 aprelda Qirg`izistonning Cho`lponota shahrida O`zbekiston, Qozog`iston va Qirg`iziston o`rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o`tib turishini nazarda tutuvchi hamda o`zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta`minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to`g`risidagi shartnomaning imzolanishi bu mamlakatlar o`rtasidagi hamkorlikni yangi pog`onaga ko`tardi. 1994 yil iyul oyi boshida Qozog`iston, O`zbekiston va Qirg`iziston Prezidentlarining uchrashuvida o`zaro integrasiyani kuchaytirish bo`yicha bitimlar imzolandi. Tomonlar Davlataro Kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek, Bosh vazirlar Kengashi, Tashqi Ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligining Kengashini ta`sis etdilar. Ayniqsa, 1996 yil 12 yanvarda Ko`kchatovda, 1997 yil 9-10 yanvarda Bishkekda, 1997 yil 12 yanvarda Oqmoloda bo`lib o`tgan O`zbekiston, Qirg`iziston Prezidentlarining, 1998 yil Ashgabatda Turkmaniston, O`zbekiston, Qirg`iziston va Qozog`iston Prezidentlarining nihoyat, 1998 yil 26

martda Toshkentda O`zbekiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston Prezidentlarining o`zaro uchrashuvlari hamda 2000 yil 14 iun kuni Dushanbeda Markaziy iqtisodiy hamjamiyat davlatlararo kengashining navbatdagi majlisi va boshqalar Markaziy Osiyo respublikalari hayotida katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Yaqin Sharq va O`rta Sharq mamlakatlari bilan aloqalar: 1991-1999 yillar davomida O`zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegasiyasining Turkiya, Eron, Pokiston, Hindistonra va mazkur davlatlarning davlat va hukumat boshliqlarining O`zbekistonga rasmiy safari paytida imzolagan hujjatlari davlatlaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 1992 yil 6 fevralda O`zbekiston, Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga (EKO) a`zo bo`lib kirdi. 1992 yil 10 mayda Ash gabadda O`zbekiston, Qozog`iston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat va hukumat rahbarlari Trans - Osiyo temir yo`lini vujudga keltirish maqsadida Tajan-Saraxs-Mashhad temir yo`lini qurish haqida bitimni, bojxona xizmatini tashkil etish haqidagi hujjatlarni imzoladilar. Uzunligi 295 km bo`lgan mazkur temir yo`l 1996- yil tugallandi va ishga tushirildi. Bu yo`l orqali O`zbekiston Fors ko`rfazigacha, undan so`ng dunyoning istalgan burchagiga chiqishi mumkin.

O`zbekistonning Sharq va Tinch okean havzasi mamlakatlari bilan munosabatlari. Prezidentimizning 1992 yildagi rasmiy safari natijasida -Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar yo`lga quyildi. Ana shu aloqalar chog`ida Xitoy tomoni bilan 20 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Bugungi kunda O`zbekistonda 80 ga yaqin O`zbekiston -Xitoy qo`shma korxonalari faoliyat ko`rsatmoqda.

AQSh va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik. Bundan qariyb 2,5 ming yil muqaddam Iskandar Zulqarnaynning bosqinchilik urishlaridan boshlab biz Yevropa sivilizasiyasi bilan o`zaro ta`sirda bo`lib kelmoqdamiz. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning AQSh, Avstriya, Shveysariya, Finlandiya, Germaniya, Fransiya, Buuk Britaniya, Gollandiyaga qilgan rasmiy davlat tashriflari natijasida g`arbning ilg`or mamlakatlari bilan o`z hamkorligini yaxshi

yo'lga qo'ydi. Xususan, O'zbekistonning AQSh bilan hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. 1996 yil 28-29 iul kunlari I.Karimovning Bill Klinton bilan uchrashuvi, 2003 yil 16-19 aprelda AQSh davlat kotibi Madlan Olbrayt Xonimning O'zbekistonda bo'lishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1996 yil boshlarigacha 200 ta O'zbek- Amerika qo'shma korxonalarini tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida tog' jinslaridan oltin ajratib oluvchi «Zarafshon-Nyumont» korxonasini alohida qayd etmoq lozim. Biri Osiyo, ikkinchisi Yevropa qit'asida joylashgan O'zbekiston va Germaniya nomlari tez-tez, yonma-yon matbuot sahifalarida tilga olinmoqda. I.Karimovning 1993 yil Germaniyaga tashrifi ikki davlat o'rtasida o'zaro hamkorlikka asos solgan bo'lsa, Germaniya Federal Prezidenti Roman Gersogning 1995 yil aprel oyidagi respublikamizga tashrifi esa shu hamkorlikning yuqori pog'onaga ko'tarishda muhim qadam bo'ldi. Umuman olganda, hozirgi kunda respublikamizda xorijiy mamlakatlarning sarmoyadorlari ishtiroki bilan 3200 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining hududi uzluksiz kengayib bormoqda.

Respublikamiz tashqi siyosatida universal xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o'rin egallaydi. Yevropaning YXHT, Yevropa Ittifoqi kabi salmoqli tashkilotlari, shuningdek NATO bilan hamkorligimiz yildan yilga rivojlanib bormoqda. Davlatimizning SHHT, MOHT, MDH bilan hamkorligi tashqi siyosatimizning muhim yo'nalishlari bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi tovar ayirboshlash yiliga 1,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etmoqda. Ulardan 47 % O'zbekistondan eksport hissasiga, 53 % esa O'zbekistonga import hissasiga to'g'ri keladi. 2003-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlari orasida yaqin hamkorlarimiz Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Fransiya, Niderlandiya bo'ldi. Yevropa Ittifoqi davlatlari iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritayotgan yirik sheriklar hamdir. Ushbu mamlakatlar firma va kompaniyalari kapitali ishtirokida

mamlakatimizda 500 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 115 tasining kapitali to'liq sheriklarimiznikidir. O'zbekiston 1992-yil fevralda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT)ga a'zo bo'lib kirdi. 1992-yil 8-10-iyulda I.A. Karimov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Finlyandiyada rasmiy safarda bo'lib YXHTning yig'ilishida ishtirok etdi va 10-iyulda bo'lib o'tgan majlisga O'zbekistonning Birinchi Prezidenti raislik qildi hamda nutq so'zladi. Ushbu nutqda mintaqamizda tinchlikka va barqarorlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan mojarolarning oldini olish haqida takliflar o'z ifodasini topdi. 1995-yilda Toshkentda YXHTning aloqalar bo'yicha mintaqaviy byurosi ish boshladi va 1996-yilda poytaxtimizda O'rta Osiyo xavfsizligiga bag'ishlangan simpozium bo'lib o'tdi. YXHTning 1995-yilda Budapeshtda bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zbekiston mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni saqlab turish, YXHTning bu jarayonda, ekologiya muammolarini, xususan hozirgi paytda milliylik darajasidan chiqib, umuminsoniy muammoga aylangan Orol muammosini hal etishda yanada samaraliroq ishtiroki bilan bog'liq bir qancha tashabbusni ko'tarib chiqdi.

1997-yilda YXHTning Lissabon sammitida O'zbekiston xavfsizlik muammolariga doir o'z qarashlarini bayon etdi. Mamlakatimiz delegatsiyasi rahbarining YXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid taklifi qabul qilindi va Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi. O'zbekiston tashabbusi bilan Toshkentda YXHTning bir qator anjumanlari o'tkazildi. Jumladan, «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzusidagi xalqaro seminar-kengashda Osiyo, Yevropa, Amerikaning 21 mamlakatidan, 29 ta xalqaro va nodavlat tashkilotlaridan vakillar ishtirok etib, inson huquqlari masalasini ko'rib chiqdilar. YXHT bilan O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yildan yilga rivojlanib bormoqda va mamlakatimizning Yevropa davlatlari o'rtasida obro'-e'tiborining o'sishiga ko'mak bermoqda. 1999-yil noyabrda YXHTning Istanbul sammitida yurtboshimiz so'zlagan nutq xalqaro maydonda katta shuhrat qozondi. Ana shu nutqda ko'tarib chiqilgan asosiy xulosani, ya'ni xalqaro terrorizm balosi chegara bilmasligini, uni yo'qotish uchun xalqaro hamkorlik zarurligini bugungi kunda

jahon ahli chuqur tushunib yetdi. Respublikamizning Shimoliy Atlantika Ittifoqi (NATO) bilan hamkorligi ham kuchaymoqda. Ayniqsa, uning “Tinchlik yo'lidagi hamkorlik” dasturiga 1995-yilda O'zbekistonning qo'shilishi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda va xalqaro hamjamiyatda obro'li o'rin egallashida, hozirgi zamon harbiy texnika yutuqlaridan foydalanishda hamda harbiy kadrlarni tayyorlashda zamonaviy uslublarni qo'llashda muhim ahamiyatga molikdir. NATO rahbarlarining bir necha bor O'zbekistonda bo'lishi dunyo va mintaqadagi xavfsizlik masalalarida ikki tomonning fikrlari mos kelishini ko'rsatdi.

Bundan buyon O'rta Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonlari rivojiga, bozor munosabatlari taraqqiyotiga va bu hududda umumiy bozor barpo etishga muhim ahamiyat beriladi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov aytganidek, «xalqimiz asrlar davomida shakllangan «Qo'shning tinch — sen tinch» degan hayotiy naqlga doimo amal qilib kelmoqda. Biz bundan buyon ham shu tamoyilga qat'iy rioya qilamiz.» O'rta Osiyo hududida yashayotgan xalqlarning muhim manfaatlarini rivojlantirish uchun ularning bir-birini o'zaro tushunishiga erishish, umummintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ekologik, suv va transport-aloqa xarakteridagi muammolarni yechishning ishchan mexanizmini yaratish lozim. Mamlakatimizda iqtisodiy hayotni yangilash jarayonlarini Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki va shu kabi xalqaro moliya tuzilmalari va tashkilotlari bilan hamkorlik va aloqalarni rivojlantirmay amalga oshirish katta qiyinchiliklarni vujudga keltirgan bo'lar edi. O'zbekiston rahbariyati ana shu yo'nalishdagi hamkorlik faoliyatiga muhim va uzoq muddatli zaruriyat sifatida qaraydi. Mamlakatimiz uchun dunyo miqyosida katta rol o'ynaydigan yirik davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa aloqalarni rivojlantirish muhim va ustuvor yonalish bo'lib qolaveradi. 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida I. A. Karimov shunday davlatlar sifatida quyidagi mamlakatlarni

sanab o'tdi: AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari, Koreya Respublikasi, Hindiston hamda Janubiy va Janubiy-G'arbiy Osiyoning ko'plab davlatlari shular jumlasidandir.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston jahonni esa O'zbekistonni kashf etdi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab jamiyatimizda izchillik bilan qilinayotgan islohotlar o'zining ko'lami, natija va jamiyati bilan jahonda katta qiziqish uyg'otmoqda. Mamlakat Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlikshartlari va taraqqiyot kafolatlari" va boshqa asarlari qator chet mamlakatlarda nashr etildi. Xalqaro "Paleya" nashriyoti "Xalqlar dohiylari XX asr" seriyasida "Islom Karimov" kitobini chop etdi. L.Levitin bilan Donald S.Karlay "Islom Karimov yangi O'zbekiston Prezidenti" nomli kitobini nashr qildilar.²⁵ O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, yangi buyuk ishlar oldida turibdi. "Siz bilan bizning vazifamiz, - deydi I.A.Karimov, - davr oldimizga kuyayotgan barcha talablarga munosib javob qaytarishdir. Istiqbolimizni aniq va ravshan tasavvur etib, Xalqimizga tinch va farovon turmushni ta'minlashdir, jahon maydonida o'zimizga munosib o'rin egallay olishdir". Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, Xalqimizning ming yillik ma'naviy-ahloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishni va aksincha, bilimli kam omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul qurishni hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda.²⁶

O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi. Bo'lg'usi jahon Parlamentining timsoli bo'lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi. Mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqning 93 va

²⁵ <http://www.abebook.com>. Islam Karimov president of the new Uzbekistan. Levitin,leonid with Donald S.Carlisle

²⁶ O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T. O'zbekiston, 1997yil

94-konferensiyalarida hamda YXHT Parlament Assambleyasining har yili o'tkaziladigan sessiyasida muntazam qatnashmoqda. Oliy Majlis Raisi YXHT Parlament Assambleyasining Vitse-prezidenti etib saylandi. Ana shu va boshqa xalqaro anjumanlarda O'zbekiston vakillari ma'ruza va axborotlar bilan chiqdilar, qator takliflarni o'rta tashladilar. Shu tariqa respublika Parlamenti a'zolarining ovozi xalqaro maydonda baralla yangramoqda. O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar - Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropada tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Osiyo va Tinch okean havzasi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Bojxonalar hamkorligi Kengashi, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Qo'mitasi (YuNeSKO) va boshqa tashkilotlar a'zosi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ko'plab xalqaro Konvensiyalarga va BMT, YXHT, XMT kabilarning protokollariga qo'shildi. Shu yillar mobaynida O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida, avvalo, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlar bilan o'rnatilgan aloqalar o'z natijalarini bera boshladi. Turkiya bilan abadiy do'stlik shartnomasi O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos yangilikdir²⁷.

1995yil 15-16-sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyo Xavfsizlik va Hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar Kengashi bo'ldi. Bu Kengashda ishtirok etish uchun 31 mamlakat, 6 Xalqaro Tashkilotlar vakillari qatnashdilar. Mintaqa xavfsizligi va mojarolarning oldini olish masalalari ko'rib chiqildi²⁸.

1995yil oktabrda nishonlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 50 yilligi va uning yubiley sessiyasi O'zbekistonning xalqaro siyosat borasidagi yangidan yangi

²⁷Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари.- Т.: Ўзбекистон. 1995.- 676.

²⁸ "Халқ сўзи" газетаси, 21 октябр, 1995 йил.

imkoniyatlarini ko'rsatishga sharoit yaratdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ana shu mo'tabar minbardan turib so'zlagan nihoyatda qisqa va lo'nda nutqi jahon hamjamiyatining tamoyilga aylangan qarashlarini o'zgartirishga, xalqaro tashkilotlar faoliyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitishga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, u mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni chuqurlashtirish, har bir mintaqada vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishidan oldindan ogoh bo'lish, ularni o'z vaqtida o'rganish va zarur xulosalarga kelish, shu asosda umumbashariy muammolarni chigallashtirmasdan hal etish masalalarini ko'tardi. O'zbekiston rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida ko'targan dolzarb masalalari butun jahon siyosatdonlari va ulkan davlat arboblari jiddiyroq o'ylashga, masalalar mohiyatini ancha chuqurroq anglashga, yangi asr ostonasida turib, yuz yilliklar ortini yorqinroq va ravshanroq ko'rishga da'vat etayotgani bejiz emas. Birinchi Prezident I.A.Karimov bu ulkan minbardan turib, birinchidan, davlat arboblari va siyosatdonlar diqqatini milliy xavfsizlik masalasini hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nuqtai nazardan qaytadan ko'rib chiqishga qaratdi. Chunki hozirgacha Xavfsizlik Kengashiga doimiy a'zo bo'lgan besh davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'ziligiga kirgan 187 davlat tashvishlarini, ularning muammolari va taqdirini hal etishga qodir emasligini, keng dunyoning bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan va hatto bir-biriga zid muammolarining barchasini qamrab olishga kuchi yetmasligini, bu keng miqyosli ishga qodir emasligini ko'rsatib berdi. Shuning uchun ham Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolari doirasini, ularning faoliyat maydonini kengaytirish va mazmunini chuqurlashtirish zarur ekanligiga hamjamiyat a'zolarining e'tiborini qaratmoqda. Ana shu kengash a'ziligiga Germaniya va Yaponiya mamlakatlarini ham qo'shish zarurligini aytdi va ularning nomzodini ko'rsatdi²⁹.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ko'targan ikkinchi masala Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish, uning jahon

²⁹ Жураев Н. Ўзбекистон тарихи: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб. – Т.: Шарқ, 2011.- 653 б.

mamlakatlari taraqqiyotiga qo'shadigan hissasidan kelib chiqib, o'z maqomini kuchaytirish masalasidir. Bosh kotibga ko'proq imkoniyat berilsa, uning dunyoviy muammolarga ko'proq aralashib, samarali ishlashiga sharoit yaratiladi. Masalalarni hal etishda xalqaro tashkilotlar mavqeyini kuchaytirish mamlakatlar o'rtasida paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklarga Bosh kotib ta'sirini kuchaytirish, ularni umuminsoniy va umumjahon manfaatlari tomonga burib yuborishdagi rolini oshiradi. Oila boshlig'i qanchalik katta imkoniyatga ega bo'lsa, moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lsa, siyosiy va huquqiy jihatdan vakolatlari keng bo'lsa, oilada barqarorlik, tinchlik, farovonlik ta'minlanishi shubhasiz. Yagona zamin, yagona makon hammamiz uchun najot maydoni. Uning qaysidir burchagida tutun burqsishi yoki qon to'kilishi boshqa biron-bir burchagida tinchlikni kafolatlay olmasligini chuqurroq anglagan va hammadan oldinroq sezgan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ulkan dunyoviy oila boshlig'iga ana shunday keng imkoniyat berish masalasini ko'ndalang qo'ydi³⁰. Uchinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti yetti milliarddan ortiq aholining butun tashvishini nazoratga olishi ancha murakkab ish. Bu osonlik bilan ko'chmaydi. Buning uchun qator mamlakatlararo va mintaqalararo faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar maqomini biroz o'zgartirib, uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish zarur. Ana shunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining umumiy faoliyat maydoni yanada kengayadi, u shug'ullanadigan masalalar konkretlashadi. Joylarda unga bo'ysunuvchi xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy muammolar va mamlakatlararo munosabatlarda yuz berayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish imkoniyati tug'iladi. BMTning turli mintaqalardagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi vakolatxonalari imkoniyatlarini kengaytirish ularning maqomini oshirish zarurati haqida gapirar ekan, birinchi Prezidentimiz I. Karimov: «Birlashgan Millatlar Tashkiloti qaerda? Amerikada, Nyu-Yorkda joylashgan. O'zbekiston qaerda? Markaziy Osiyoda! Shuning uchun bu yerdagi tashkilotning tarkibi, albatta, kengroq bo'lishi kerak. Unga hali ko'proq

³⁰Гаффоров Я., Холлиев А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳўжамияти.-Т.: 2003.-56 б.

huquq berish va iqtisodiy nuqtayi nazardan imkoniyatlarini kengaytirish kerak»³¹- deydi, O‘zbekiston televideniyesi muxbiri savollariga javob bera turib. Ayni paytda turli mintaqalarda, turli doiralarda faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ancha-muncha. Jumladan, yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, arab davlatlarida Islom Tashkiloti, Janubiy-Sharqiy Osiyoda Tinch okeani mintaqasi davlatlarining Kengashi faoliyat ko‘rsatmoqda. Yana bir qancha iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy doirada ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlar mavjudki, ana shularning hammasini birlashtirib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish, xalqaro tashkilotlar yagona tizimini vujudga keltirish XXI asr taqdirini belgilaydigan muhim omil ekanligini ko‘rsatib berdi

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999-yilgi Istanbul sammitida mamlakat birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT huzurida terrorchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro markaz tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. 2001-yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo‘mitasining tashkil etilishi bu g‘oyaning amaliy natijasi bo‘ldi. O‘zbekiston ayni vaqtda BMTning mavjud 12 aksilterror konvensiyasiga hamda narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashga oid konvensiyalariga qo‘shilgan. Bu yo‘nalishdagi hamkorlikning amaliy ifodasi sifatida 2000-yil 19-20-oktabr kunlari Toshkentda BMT va VOSG bilan hamkorlikda «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: giyohvand moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda umumiy yondashuv» mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazildi³².

Mamlakatimiz BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan turli yo‘nalishlarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Bunda davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimovning xalqaro integratsiyani kuchaytirish, barqarorlikni mustahkamlash va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hamda tinchlikparvarlikka asoslangan izchil siyosati muhim omil bo‘lmoqda³³.

³¹Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.- Т.: Ўзбекистон, 1996. 48-б.

³²Каримов И.А. Озод ва фарон ва фарон хаёт – пировард максадимиз. -Т., Ўзбекистон, 2000 йил, 8-жилд, -347б.

³³ «Ўзбекистон овози» газетаси, 2001 йил, 29 ноябр.

O‘zbekiston BMTning 15 ixtisoslashgan tashkilotdan biri – YuNeSKOga 1993 yilning 29 oktyabrida a'zo bo‘ldi. YuNeSKO tarixida ilk bor Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun maxsus dastur ham qabul qilindi. Bu dastur Markaziy Osiyo tadqiqotlarini o‘rganish, tiklash va keng targ‘ib etishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston - BMTning faol a'zolaridan. Zero, mamlakatimiz butun dunyoda tinchlikni qaror toptirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ko‘plab xayrli ishlarning tashabbuskorlaridandir. Tashkilotning o‘sha paytdagi Bosh kotibi Kofi Annan 2002-yil oktabrida yurtimizga tashrifi chog‘ida O‘zbekistonning jahonda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y harakatlariga yuqori baho berdi. Bu mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi yuksalib borayotganining yana bir tasdig‘idir³⁴. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun 2010- yil, 4—5-aprel kunlari mamlakatimizda bo‘ldi. BMT Bosh kotibi dastlab Nukus shahrida Orolbo‘yi ekologik vaziyatni yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlarga bag‘ishlangan taqdimot marosimida ishtirok etdi. Taqdimot marosimida mintaqadagi ekologik vaziyat haqida batafsil ma'lumot berildi.

-Mintaqadagi ekologik vaziyatni ko‘zdan kechirib, ahvol o‘ta murakkab ekaniga amin bo‘ldim, - dedi Pan Gi Mun. - Bu butun insoniyatni ogohlikka chorlaydi. Bu global muammoni mintaqadagi barcha davlatlar hamjihatlikda hal etishi lozim³⁵. BMT Bosh kotibi Toshkentdagi Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan ham uchrashdi. Muloqot chog‘ida O‘zbekistonning BMT bilan aloqalari izchil rivojlanib borayotgani, tashkilotning YuNISEF, YuNeSKO singari qator tuzilmalari bilan yaqin hamkorlik mamlakatimizning jahondagi nufuzini yanada oshirishga hizmat qilayotgani alohida ta'kidlandi. Davlatimiz birinchi rahbari mehmonni yurtimizga tashrifi bilan qutlar ekan, O‘zbekiston mintaqaviy rivojlanishning ko‘plab dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha BMT bilan samarali hamkorlik qilib kelayotganini ta'kidladi. Oqsaroydagi uchrashuvda Pan Gi Mun samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga

³⁴ P.Фармонов. Ўзбекистон Республикаси сиёсий тизимининг шаклланиши ва Фарб тажрибаси.-Т.: ТДПУ, 2004. – 29 б.

³⁵Халқ сўзи, 2010 йил 6 апрель.

minnatdorlik bildirib, BMT O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanini alohida ta'kidladi. BMT Bosh kotibi davlatimiz rahbarining mintaqaviy va xalqaro rivojlanishning dolzarb masalalarini hal etish borasidagi izchil va samarali yondashuviga yuksak baho berdi³⁶.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov va BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning uchrashuvi yakunida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Tszintao 2010-yil 9-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlar tarixi ming yillar qa'ridan boshlanadi. Choy, paxta, ipak, qog'oz kabi kundalik turmushda hamisha iste'molda bo'lgan mahsulotlarning dunyo bo'ylab tarqalishida Movarounnahr va Chin yurti o'rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar muhim o'rin tutgan. Xalqaro muammolarni hal etishda Xitoyning nuqtai nazariga alohida e'tibor berilishi BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lgan bu mamlakatning yuksak siyosiy salohiyatidan dalolatdir. Iqtisodiy sohada esa Xitoyning qudrati haqida uning o'sib borayotgan yalpi ichki mahsuloti, tashqi savdo va eksport hajmi bo'yicha etakchi o'nlikka kirishi aniq tasavvur beradi.

G'arb, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni izchillik bilan rivojlantirib, O'zbekiston ushbu aloqalarni yangicha ma'no-mazmun bilan to'ldirishga intilmoqda. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida 1996 yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Bitimga muvofiq, Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy muloqotlar, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanmoqda va mustahkamlanmoqda. O'zbekiston bilan Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari, jumladan, AQSh o'rtasida hamkorlik kengaymoqda. O'zbekiston va

³⁶Рахимов М.А. . Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии.-Т.: 2011.-34 с.

AQSh xavfsizlikka tahdid soluvchi global jarayonlar – narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishga qarshi kurash sohasida hamda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash borasida o'zaro hamkorlikni davom ettirmoqda. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston e'tiqodi, an'analari va urf-odatları bo'yicha yaqin bo'lgan Osiyodagi, Yaqin va O'rta Sharqdagi musulmon davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalar rivojlanmoqda

Mustaqillik tufayli O'zbekiston jahonga yuz tutdi, xalqaro maydonda o'z obro'yiga, o'z nufuziga ega bo'ldi. O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keluvchi faol tashqi siyosatning yuritilishi - bu davlat mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish va xalqning turmushini yaxshilashning eng muhim vositasi va zaruriy shartidir., «O'zbekistonning jahondagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani eng avvalo:

yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'lmoqda;

Bu - davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarning amaliy samarasida o'z ifodasini topmoqda. Va nihoyat, bu - mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o'ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda.¹

1992-yilda mamlakatimizning davlat mustaqilligini 130 mamlakat rasman tan olib, ularning 48 tasi bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda O'zbekistonni 165 davlat tan oldi va dunyodagi 130 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. Toshkentda 45 mamlakat va 20 ta xalqaro tashkilotlarning missiyalari akkreditatsiya qilingan. 2002-yilda Nyu-Yorkda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovga «Xalqaro miqyosdagi lider» mukofotining topshirilishi mamlakatimizning jahondagi

nufuzini dunyoning eng rivojlangan, eng yirik, eng kuchli davlatlari ham tan olganligining belgisi bo'ldi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning haqiqiy ishtirokchisi ekanligini to'la namoyon qila oldi. U xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalariga qat'iy rioya etgan holda boshqa davlatlar bilan o'zaro teng, hurmat va hamkorlikka asoslangan diplomatik munosabatlar o'rnatildi va bu jarayon uning tashqi siyosatida yaqqol ko'rindi. XX asr nihoyasiga kelib, O'zbekiston Respublikasi jahon siyosatida yangi bir, o'ziga xos pragmatik yondashuvga ega yangi bir siyosiy aktyor paydo bo'lganligini ko'rsatdi. Haqiqatan ham, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari yildan yilga kuchayib bormoqda va biz dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egalladik. Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining 130 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatganligining o'ziy o'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi o'rni va ro'li qanchalar muhim ekanligidan xabar beradi.

Xulosa

Xalqaro munosabatlar insoniyat tarixining eng shonli va ulug'vor qadamlaridan biri ekanligi shubhasizdir. Zero, bashar ahli erishgan eng ulkan jahoniy hodisalardan biri bu insonlar va davlatlarning o'zaro aloqa qilishligidir. Inson zoti doimo boshqalar bilan aloqada va muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezar ekan bu hodisa davlat va huquqning paydo bo'lish jarayonida ham bir oz bo'lsada pasaymadi. Tarixiy nuqtai nazardan kelib chiqiladigan bo'lsa ilk ibtidoiy jamoalar, qabila ittifoqlari, shahar-davlatlar, ilk davlatchilik tuzilmalari o'z siyosiy va huquqiy apparatlarini tuzar ekanlar doimo xavfsiz va barqarorlikda yashashga intilganlar. O'z siyosiy mehanizmlarining barqaror bo'lishi uchun ular doimo boshqalar bilan you rush holatida yoki ittifoq asosida yashashga majbur bo'lganlar. Bu esa, o'z navbatida ilk davlatchilik mehanizmlari o'rtasida kurtak ochgan mintaqaviy va xalqaro aloqalardan xabar beradi. Xalqaro munosabatlar keng va qadim tushuncha bo'lishi bilan birgalikda bizning bugungi texnologik integratsion zamonamiz uchun ham shu darajada yangi tushunchadir. Negaki, aynan XX-XXI asr voqeligi xalqaro aloqalar va unda davlatlar ro'li qanday bo'lishi haqidagi nazariya va amaliy tajribalarga yangicha mazmun berdi. Xalqaro aloqa va munosabatlar tushunchasi o'zining yangi sahifalarini ocha boshladi. Ko'p yillar mobaynida siyosatshunoslik, xalqaro huquq, davlat va huquq nazariyasi kabi fanlar tizimi xalqaro munosabatlar tizimiga baho berishga harakat qilishgan. Bu sohaning rivoji haqida esa ko'plab ilmiy yangiliklar va tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, xalqaro munosabatlar doirasida kuzatiladigan bir qancha qiziqarli holatlardan biri shundaki, aynan bu sohada qilingan nazariy xulosalar emas, balki qilingan ishlar, amaliy natijalar, olingan xulosalar va boy tajriba muhim hisoblanadi. Nega deganda, xalqaro aloqalar birinchi navbatda sof amaliy ko'nikma va mohirona diplomatiyani talab etadi. Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan bir qancha siyosiy va ijtimoiy inqirozlar ham shu nuqtai nazardan tahlil qilinsa, ular ham siyosiy muzokara va diplomatik yo'l bilan hal qilinishi mumkin. Insoniyat tarixi kurashlar tarixidan iborat deyishadi. Shu ma'noda u ittifoq va anglashuvlar

tarixidan ham iboratdir. Bashariy ahli o'z boshidan ne-ne og'ir va zalvori yuksak kunlarni o'tkizdi, ammo u ko'plab qiyinchilik va musibatlarni ittifoqlarga uyushish va xalqaro aloqalarni to'g'ri yo'lga solish orqali ham yenga oldi. II-jahon urushida erishilgan Buyuk G'alabaning o'ziyoyq bu mungyillikdagi xalqaro munosabatlarning muvaffaqiyatidan xabar beradi.

Har qanday mustaqil davlat doimo o'zini xalqaro aloqalarning asosiy ishtirokchisi va merosxo'ri sifatida ko'rishni istagan va bu pozitiv huquqqa har qanday suveren respublika to'la haqli. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ham qariyb 26 yillik zamonaviy tarixi davomida nafaqat xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ektiga aylandi, balki unda o'z so'zi, o'z pozitsiyasiga ham ega bo'ldiki, uni bugun dunyoning ko'plab davlatlari, xalqaro tashkilotlari e'tirof etmoqdalar. O'zbekiston davlati uchun xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etish tubdan yangi tajriba emas. U o'zining uch ming yillik tarixi davomida mintaqaviy va xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi va ayni damda tashkilotchilaridan biri bo'lib kelgan. Ba'zan bu tashkilotchilik va faollik ayrim sabablarga ko'ra cheklangan bo'lishi mumkin. O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi, davlatchilik taraqqiyoti, ilmiy salohiyati, geopolitik o'rniga ko'ra xalqaro aloqalarning eng qaynoq va muhim hududlaridan bo'lib kelgan. **Birinchi**dan u Markaziy Osiyoning qoq markazidan joylashgan bo'lib, sharq va g'arb karvonlarini bog'lovchi asosiy hudud vazifasini bajargan. Bu uning xalqaro munosabatlardagi eng birinchi va muhim aspektini belgilaydi. **Ikkinchi**dan uning tabiiy joylashuvi va iqlim sharoitlari bu hududdagi turli sohalarning rivojiga pirovardida ilk davlatchilik tuzilmalari va xalqaro va mintaqaviy aloqalar rivojlanishiga turtki berdi. **Uchinchi**dan uning boy inson va energetik resurslari uni Markaziy Osiyodagi eng qudratli aktyorga aylantirdi. Bunday jarayonda u albatta, mintaqadagi va xalqaro maydondagi kuchlar bilan to'gridan-to'g'ri aloqaga kirishadi va xalqaro munosabatlarni yanada rivojlantiradi. Ushbu omillarning bari o'zining takrorlanmas natijalarini namoyon eta bordi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlardagi o'zni va mavqeini yanada oshirdi. Mustaqillikka erishgach

O'zbekiston zamonaviy tarixida xalqaro diplomatiya yangi bosqichga ko'tarildi. U avvalo, yaqin qo'shnichilik aloqalarini olib borishga faol kirishdi. Shu ma'noda Respublikaning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bir qator ishlar samarasi o'laroq O'zbekiston Markaziy Osiyodagi erkin, liberal demokratik davlatga aylandi va qo'shni davlatlar hisoblangan Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Afg'oniston bilan yaqin qo'shnichilik, savdo-sotiq, madaniy hamkorlik yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston xalqaro munosabatlar doirasida mintaqada cheklanib qolmasdan Uzoq va Yaqin sharq mamlakatlari, Janubi –Sharqiy Osiyo davlatlari, Arab dunyosi qirolliklari, Yevropa va AQSh respublikalari bilan ham faol tashqi siyosat olib bordi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham o'zining pozitsiyasini e'lon qilar ekan, O'zbekistonning barcha qo'shni va chet el davlatlari bilan o'zaro teng va manfaatli aloqalarni saqlab qolishga tayyorligini bildirdi. Bu jarayon Prezidentimizning Turkmaniston, Qozog'iston Respublikalari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Saudiya Arabistoniga qilgan davlat tashriflarida ham yaqqol ko'rindi. Bu esa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlardagi katta tajribasining mantiqiy davomi va uning faol ijrochisi ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-T.: O'zbekiston, 1993,- 427 b.
- 2.Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: O'zbekiston, 1994,- 324b.
- 3.Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni muvofiqlashtirishning muhim vazifalari. – T.: O'zbekiston, 1996. – 384b.
- 4.Karimov I.A. Prezident I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasi. –T.: O'zbekiston, 1993.- 45 b.
- 5.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996, -104b.
- 6.Karimov I.A. Tariximiz ham, kelajagimiz ham mushtarak. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996, -233b.
- 7.Karimov I.A. Do'stligimiz quyoshi ming yillar qaridan nur sochadi.-T. : O'zbekiston, 1996, -105b.
- 8.Karimov I.A. Turkiston umumiy uyimiz. T.: O'zbekiston, 1995, -17b.
- 9.Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, 1996. -368b.
- 10.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild.-T.: O'zbekiston, 1996, -284b.
- 11.Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T: O'zbekiston, 1999.
- 12..Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild.-T: O'zbekiston, 2001.-345b.
- 13.Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l- demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild.-T: O'zbekiston, 2003.-451b.
- 14 Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: O'zbekiston, 1994, -24b.

II. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T:O‘zbekiston . 2016
2. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni // Inson huquqlari. – T.: O‘zbekiston, - 246b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonuni, 12. 10. 1996
- 4.“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustakilligi asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Inson huquqlari. - T:O‘zbekiston . 1997.

III. Adabiyotlar

- 1.FarmonovR, K.Jo‘raev. Xalqaro munosabatlar tarixi. –T.: JIDU, 2011. – 200 b.;
- 2.Qirg‘izboev A. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi.-T.:Fan, 2004.-280 b.
- 3.FarmonovR. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanishi va G‘arb tajribasi.-T.: TDPU, 2004. – 29 bet.
- 4.G‘afforov Ya., Xolliev A. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.-T.: 2003.-56 bet.
- 5.Jo‘raev N. O‘zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.- 653 b.
- 6 Inozemstev. Tanlangan asarlar. 1978.11-bet.
- 7 Шахназаров Г.Х. Грядущий миропорядок. –М., 1981. –С.17
- 8 Xalqaro huquq A.X.Saidov 2001-y.15-bet
- 9 Lafasov M. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari.-T.: 1995;
- 10.Holsti K.J. *Mirror on the Wall, Which are the Fairest Theories of All?* // [International Studies Quarterly](#). Vol. 33. 1989.
- 11.Шахназаров Г.Х. Грядущий миропорядок. –М., 1981. –С.19.
- 12.Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2001

13. The anarchical society. Hedley Bull. <https://www.amazon.co.uk/books>.
14. System and process in international politics, Marton A. Kaplan 1957. P:128
15. Mo‘minov A. O‘zbekiston va YuNESKOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. – T., 2003.- 21 beb.
16. O‘zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida.- T.: Akademiya, 2005.-B.359.
17. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati: xalqaro munosabatlar va tashqi aloqalarni tashkil qilish. /Umarov B.Z., G‘aniev A.S. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2008.-B.365.
18. Safoev S. Markaziy Osiyo geopolitikasi.-T.: 2005;
- 19 Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. - T:O‘zbekiston, 1994.
20. Taraqqiyot va hamkorlik yo‘llari: O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 1993
21. Tulenova G. J. Geopolitika. - Toshkent:Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2008
- 22 Касымов А., Васкын И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан.-Т.: Ўзбекистон, 1994.-112 с.;
- 23 Р.Фармонов. Ўзбекистон Республикаси сиёсий тизимининг шаклланиши ва Фарб тажрибаси.-Т.: ТДПУ, 2004. – 292 б.;
- 24 Р.Фармонов, К.Жўраев. Халқаро муносабатлар тарихи. –Т.: ЖИДУ, 2011. – 200 б.;
- 25 Саидов А.Х. Межпарламентские организации мира.-М.: Международные отношения, 2004.-351 с.;
- 26 Рахимов М.А. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии.-Т., 2011.-234 с.
- 27 Цыганков П.А. Теория международных отношений. –М., 2003.
28. Богатуров А. Современный международный порядок // Современный международный порядок. – Т.3, № 2(8). Май-август 2005.

IV. Davriy matbuot

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning SHHT davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2007 yil 17 avgust.
2. O‘zbekiston va Rossiya - ittifoqchi davlatlar // Xalq so‘zi -2005 -15 noyabr
3. Rossiya – strategik hamkor. //XXI ASR gazetasi, 2004 yil 17 iyun.
4. Халқ сўзи” газетаси, 21 октябр, 1995 йил.
5. Xalq so‘zi gazetasi, 1995 yil 8 noyabr.

V. Internet manbalari

1. O‘zbekiston-Rossiya: hamkorlikning yangi ufqlari //http: www.press-uz.info/index.php
 2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi: //http:mfe.uz/uzb//xalqaro_munosabatlar/xalqaro_tashkilotlar/
 3. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari //http://www.mfa.uz Uzbekistan
 4. <http://uza.uz/uz/politics/xalqaro> hamkorlik.
 5. <http://www.abebook.com>.
- Islam Karimov president of the new Uzbekistan. Levitin,leonid with Donald S.Carlisle
6. http://www.aab.uz/uz/press_center.